

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

OUR FIELDS

- Exact Sciences
- Natural sciences
- Medical sciences
- Technical sciences
- Economics
- Philological sciences
- Pedagogical sciences
- Social and humanitarian sciences
- Psychological sciences
- Arts and cultural sciences
- Physical education and sports

RESEARCHBIB IMPACT
FACTOR: 6.4 / 2023
SJIF 2023: 3.778



Research Science and
Innovation House

OUR INDEXING



ISSN (E): 2181-4570



• <http://universalpublishings.com>



Research Science and
Innovation House

"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE" MCHJ

JOURNAL OF UNIVERSAL SCIENCE RESEARCH

SEPTEMBER 30, 2025

VOLUME 3, ISSUE 9

2023





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073

**"Journal of Universal Science Research" scientific-methodical journal:
30.09.2025.**

In this collection, the articles accepted for the **"Journal of Universal Science Research"**, Volume-3, Issue-9, 2025, are published.

DOI number was attached to all articles in the journal and indexed in the international scientific bases of **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Advanced Science Index, J-Base, Cite Factor, International Scientific Indexing, Euarasian Scientific Journal Index, General Impact Factor, Internet Archive, Scientific Journal Impact Factor, EuroPub.**

Dissertations are officially recognized as articles published in national journals on the list of journals recommended to publish the main scientific results of dissertations by OAK.

Basis: Page 3 of the list of scientific publications recommended to publish the main scientific results of dissertations of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent: 2019. - 160 p


The materials of the magazine can be used by professors, teachers, independent researchers, doctoral students, masters, students, lyceum colleges and school teachers, scientific workers and all those interested in science.

Reminder! The authors are personally responsible for the correctness of the numbers, reports, data and the correctness of the quotations in the scientific articles included in the collection of journal materials.



Research Science and
Innovation House

**"RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE" LLC**






EDITORIAL TEAM


Editor-in-chief, **Eshkaraev Sadridin Chorievich** - Head of the Department of Medicine and Natural Sciences, Doctor of Philosophy in Chemistry, Associate Professor, Termez University of Economics and Service, Termez, Uzbekistan. . [ORCID esadir_74@rambler.ru](mailto:ORCID_esadir_74@rambler.ru)

1. Editor of medical sciences **Ye Fan Wang Glavin**, Case Western Reserve University, United States / Chinese Academy of Medical Sciences, Peking Union Medical College, China
2. Editor-of technical science, **Eshkaraev Ulugbek Chorievich** - Associate Professor of the Department of Primary Education Methodology of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Candidate of Technical Sciences, Denau, Uzbekistan.
3. Editor of medical sciences **Carolyn Steele Gray**, Canada Research Chair in Implementing Digital Health Innovation (Tier 2), Canada
4. Editor of technical science **Babamuratov Bekzod Ergashevich** - associate professor of the Department of Physical Chemistry of Termiz State University, Doctor of Philosophy Technical Science, Termez, Uzbekistan.
5. Editor of medical sciences **Donata Kurpas**, Wroclaw Medical University, Poland
6. Editor of chemical sciences **Mirabbos Hojamberdiev Ikromovich**- associate professor of the Technische Universität Berlin, doctor of chemical science, Berlin, Germany
7. Editor of medical sciences **Mirella Minkman**, Vilans, Netherlands
8. Editor of chemical science **Furkat B. Eshkurbonov** - Termiz state university of engineering and agrotechnology, doctor of sciences in chemistry, Professor of technology of organic substance and materials on their basis, Termez, Uzbekistan.E-mail: furqateshqurbonov@gmail.com
9. Editor of medical sciences **Roberto Nuño**, Director Investigación y Formación Fundación Gaspar Casal, Spain
10. Editor-of Economic, **Otamurodov Shavkat Tillayevich** - Vice-rector of Termiz University of Economics and Service Doctor of Economic science, Termez, Uzbekistan.
11. Editor of medical sciences **David Perkins**, University of Newcastle, Australia
12. Editor-of Social and humanities, **Xudoyberdiyev Xursand Xudoyberdiyevich** - Termiz Institute of Engineering and Technology, Doctor of Social and humanity Science, Termez, Uzbekistan.
13. Editor of medical sciences **Otamurodov Furqat Abdukarimovich**, Director of Termiz Branch of Tashkent Medical Academy, Termez, Uzbekistan Doctor of science in Medical Sciences, Termez, Uzbekistan.
14. Editor of medical sciences **Robert Henderson**, University of Arizona
15. Editor biological sciences **Nurova Zamira Annakulovna** Termez branch of Tashkent Medical Academy. Termez, Uzbekistan Doctor of biological science, docent, Termez, Uzbekistan.
16. Editor filological sciences **Chris Kennedy**, University of Chicago
17. Editor of medical sciences **Turabayeva Zarina Kenjabekovna** Termez branch of Tashkent Medical Academy, doctor of Philosophy medical sciences, Termez, Uzbekistan.
18. Editor of Sociology science **Eryigitova Lobar Qodirovna**Head of the Department of Social Sciences and Physical Culture of CAMU International Medical University
19. Editor filological sciences **Jurayeva Ramziya Abdurahimovna** Kokand State Pedagogical Institute. Kokand, Uzbekistan Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), senior teacher.
20. Editor of physics-mathematics-sciences **Bobamuratov Ulugbek Erkinovich** Termiz Institute of Engineering and Technology, Doctor of Philosophy physics-mathematics-sciences, Termez, Uzbekistan.
21. Editor of medical sciences **Akhmedov Kamoliddin Khakimovich** Dean of the Faculty of Treatment No. 1 of the Termiz branch of the Tashkent Medical Academy, Candidate of medical sciences, associate professor
22. Editor of medical sciences **Vahidov Alisher Shavkatovich** Termez branch of Tashkent Medical Academy General surgery, children head of the department of surgery and pediatric urology Doctor of medical sciences, professor





23. Editor of Humanitarian science **Rakhmonov Abdukahhor Abdusattorovich** Vice-Director for Spiritual Education and Youth Affairs, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences
24. Editor of technical sciences **Hasan Soyibnazarovich Beknazarov** Leading researcher of the Tashkent Research Institute of Chemical Technology, doctor of technical sciences, professor.
25. Editor of pedagogical sciences **Sultonova O'g'iloy Nabiyevena** Termiz Institute of Engineering and Technology, Doctor of Pedagogical sciences, Termez, Uzbekistan.
26. Editor-of medical sciences, **Sultonov Ravshan Komiljonovich** - Termiz University of Economics and Service Doctor of Philosophy of medical science, Termez, Uzbekistan. e-mail: ravshansultonov605@gmail.com
27. Editor of pedagogical sciences **Eshkoraev Kahramon**- Chirchik state pedagogical University Doctor of Philosophy in pedagogical science, Termez, Uzbekistan e-mail: eshqorayev1987@mail.ru
28. Editor of technical sciences **Rakhmankulov E. Jasur**-Tashkent scientific Research Institute of Innovative Chemical Technology Doctor of Philosophy in technical science. e-mail: jasurer87gmail.com
29. Editor of the Department of Agricultural Sciences **Jurakhon N. Nadzhiev** - Advisor to the Termez Institute of Agricultural Technologies and Innovative Development, Doctor of Agricultural Sciences DSc.
30. Editor of the Department of Agricultural Sciences **Dilshod T. Jumanov** - Advisor to the Termez Institute of Agricultural Technologies and Innovative Development, Candidate of Agricultural Sciences.
31. Editor of technical science **Nomozov K. Abror** - Doctor of Philosophy to the Termez Institute of engineering and technology, Termez, Uzbekistan. e-mail: abrnomozov055@gmail.com
32. Editor of technical science **Misirov Kh. Zafar** Doctor of Philosophy to the Termez Institute of engineering and technology, Termez, Uzbekistan. e-mail: zafarmisirov1986@gmail.com
33. Editor of technical science **Shaymardanova A. Mokhichekhra** - Termiz institute of Engineering and Technology, doctor of philosophy in technical science. E-mail: mokhichekhrashaymardanova@gmail.com
34. Editor of Philology sciences **Mariya D. Bekbergenova** - Karakalpak State University, doctor of philosophy in Philology science(PhD)
35. Editor of Philological sciences **Zulfiya K. Ktaybekova** - Karakalpak State University, doctor of philosophy in Philology science(PhD)
36. Editor of Medical sciences **Dilorom A. Khurmatova** - Termez branch of Tashkent Medical Academy, doctor of Philosophy in Medicine(PhD)
37. Editor of Technical science, **Sahomiddin. Z. Hodjamkulov** - Termez Institute of engineering and technology Doctor of philosophy in technics, Docent of Technology Inorganic Substance and Materials on their Basis. E-mail: xodjamkulovsahomiddin@tiet.uz
38. Editor of Pedagogical sciences **Nodira. N. Musaeva** - Bukhara State University, doctor of science in Pedagogics(DSc), docent of Theory and methodology of professional education.
39. Editor of Technical science, **Berdimuratov. T. Umid** - Termiz institute of engineering and technology, Doctor of Philosophy in technical science. E-mail: umidberdumu5@gmail.com
40. Editor of technical sciences, **Diyorov. G. Husan** - Termez Institute of engineering and technology Doctor of Philosophy in technical sciences. E-mail: husan_diyorov88@mail.ru
41. Editor of technical science, **Rustam. R. Karimov** - Termez Institute of engineering and Technology Doctor of Philosophy in technical Science, Docent of the Agriengineering and Chemical Technologies Department
42. Editor of Historical sciences, **Kholiyarov. Ch, Tulkinjon** - Head of the "Social and Humanities" Department of the Termiz Institute of Engineering and Technology, doctor of philosophy in Historical science. E-mail: txoliyarov@mail.ru
43. Editor of Technical Sciences, **Zakir. R. Khudaikulov** - Termiz Institute of Engineering and Technology, docent of the General Electric Engineering, doctor of philosophy in Technical science.
44. Editor of Technical Sciences, **Bobomurodov. R. Mirkomil** - Termiz Institute of Engineering and Technology, doctor of philosophy in Technical science.
45. Editor of Technical sciences, **Qalandarov Ro'zimurod Qurbonovich** - Termiz Institute of Engineering and Technology, professor, Candidate of technical sciences



46. Editor of Philology Sciences, **Allambergenova. A. Guljakhan** - Karakalpak State University, Doctor of Philosophy in Philology, Docent of Karakalpak language.
47. Editor of Pedagogical sciences, **Feruza. B. Muzafarova** - Bukhara State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical science, Docent in theory and methodology of physical education and sports training
48. **Iroda G. Abdullaeva** - Editor of Philosophical sciences Urgench State University, doctor of philosophy in Philosophical sciences (PhD), associate professor Theory of building a democratic society in Uzbekistan
49. **Jumaniyazova Navbahor Baxtiyarovna** - Editor of Biological sciences Doctor of philosophy (PhD) in biological sciences, Urganch State University, Uzbekistan, navbahorjumaniyazova@gmail.com
50. **Dilnoza A. Sadanova** - Editor of Philosophical sciences, Urgench State University, doctor of philosophy in Philosophical sciences (PhD), associate professor Theory of building a democratic society in Uzbekistan
51. **Shirin K. Babadjanova** - Editor of Biological sciences Doctor of philosophy (PhD) in biological sciences, Urganch State University, Uzbekistan
52. **Saidjanova.K. Zebo** - Editor of Philological sciences, Urgench State University, doctor of philosophy in Philological sciences (PhD).
53. **Ataxanova Venera Radjapovna** - Editor of Philological sciences, Urgench State University, doctor of philosophy in Philological sciences (PhD).
54. **Hulkar K. Gaipova** Editor of Philological sciences, Urgench State University, doctor of philosophy in Philological sciences (PhD).
55. **Rakhimova Z. Muminakhon** - Editor of Philosophical sciences Urgench State University, doctor of philosophy in Philosophical sciences (PhD), Associate Professor of the Department of Social Work and Philosophy
56. **Toshaliyev B. Kakhramon** - Editor of historical sciences Termez State University Doctor of Philosophy in historical Science, Termez, Uzbekistan e-mail: kakhramon19821801@mail.ru
57. **Matsaidova Sayyora Khudaiberganovna** - Editor of pedagogical sciences Urganch State University, Faculty of Natural and Agricultural Sciences, Department of Geography, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor
58. **Razzakov Qahramon Bekdurdievich** - Editor of biological sciences Department of Biology, Faculty of Natural Sciences, Urganch State University, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor
59. **Abdullayev Ulmasbek Ravshanbekovich** - Editor of biological sciences Department of Biology, Faculty of Natural Sciences, Urganch State University, Candidate of Biological Sciences, Associate Professor
60. **Khudaykulov. Z. Rustam** - Editor of pedagogical sciences Senior lecturer of the Department of Transport Engineering and Logistics of Termiz State University of Engineering and Agro-Technology
61. **Makhmud. R. Karimov** - Editor of technical sciences , docent of agricultural and meliorative machinery. Mechanization of agricultural and reclamation works. Doctor of philosophy in technical sciences. Termiz State University of Engineering and Agro-Technology
62. **Yugayev. M. Shavkat** - Editor of technical sciences , Doctor of philosophy in technical sciences. Termiz State University of Engineering and Agro-Technology.
63. **Abdirashidov A. Aslidin** - Editor of technical sciences , PhD, senior lecturer, Termiz State University of Engineering and Agrotechnology, Department of Transport Engineering and Logistics, Uzbekistan
64. **Shavkat. S. Turaev** - Editor of technical sciences , PhD, Senior lecturer, Department of "Construction of Buildings and Structures", Faculty of Civil Engineering and Irrigation, Termez State University of Engineering and Agrotechnology
65. **Eshkuvvatov. A. Ulugbek** - Editor of technical sciences , PhD, Termez University of Engineering and Agrotechnology Head of the Department of Road Engineering
66. **Rakhimov. Kh. Rashid** - Editor of technical sciences, Termiz state university of engineering and agrotechnology, doctor of philosophy in technical sciences(PhD).



REANIMATSIYA AMALIYOTIDA TRAXEOSTOMIYANING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

Axrorov Abror Ixtiyor og'li

+998942529300

Respublika Shoshilinch Tibbiy Yordam Ilmiy Markazi Navoiy viloyat filiali

Annotatsiya

Ushbu ilmiy ishda reanimatsiya amaliyotida traxeostomiyaning dolzarbligi va klinik ahamiyati yoritilgan. Nafas yetishmovchiligi, yuqori nafas yo'llarining obstruksiyasi, uzoq muddatli sun'iy nafas oldirish zarurati kabi holatlarda traxeostomiyaning qo'llanishi tahlil qilindi. Jarayonning asosiy klinik bosqichlari, ijobiy natijalari hamda mumkin bo'lgan asoratlari ilmiy asoslangan holda ko'rib chiqildi. Xulosa sifatida, traxeostomiya reanimatsiya sharoitida bemor hayotini saqlab qolishda va davolash samaradorligini oshirishda muhim jarrohlik usuli ekanligi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: Traxeostomiya, reanimatsiya, nafas yetishmovchiligi, sun'iy nafas oldirish, intensiv terapiya, obstruksiya, asoratlar.

Kirish

Reanimatsiya va intensiv terapiya amaliyotida nafas yo'llarining o'tkir va surunkali buzilishlari, shuningdek, uzoq muddatli sun'iy nafas oldirish zaruriyati ko'plab uchraydigan klinik vaziyatlardan biridir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, og'ir bemorlarning deyarli yarmida turli darajadagi nafas yetishmovchiligi kuzatiladi va bunday holatlarda hayotni saqlab qolish uchun nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini tez va ishonchli ta'minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ana shunday sharoitlarda traxeostomiya eng samarali va keng qo'llaniladigan jarrohlik usullardan biri sifatida ajralib turadi. Traxeostomiya — bu traxeyada jarrohlik yo'li bilan teshik ochib, naycha kiritish orqali nafas yo'llarini ochiq va nazorat ostida ushlab turish imkonini beruvchi muolaja hisoblanadi. Bugungi kunda reanimatsiya sharoitida ushbu usulning ahamiyati juda katta bo'lib, u nafaqat nafas yo'llarini ta'minlaydi, balki uzoq muddatli parvarish, aspiratsiya profilaktikasi va bemorning tezroq tiklanishiga xizmat qiladi.





Traxeostomiyaning klinik ko'rsatmalari

Traxeostomiya, avvalo, o'tkir nafas yetishmovchiligi sharoitida qo'llaniladi. Yuqori nafas yo'llarida o'sma, shish, yot jismlar yoki qon quyilish natijasida obstruksiya yuzaga kelgan hollarda bemor faqat ushbu jarrohlik aralashuv yordamida saqlab qolinish mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy reanimatsiya amaliyotida sun'iy nafas oldirishning 7–10 kundan ortiq davom etishi tavsiya etilmaydi, chunki uzoq muddatli intubatsiya traxéal shikastlanish va og'ir asoratlarning xavfini oshiradi. Shu bois, uzoq vaqt ventilyatsiya talab etiladigan bemorlar uchun traxeostomiya eng maqbul yechim hisoblanadi. Shuningdek, og'ir bosh miya jarohatlari, koma holatlari, miya qon aylanishining buzilishlari, nevrologik kasalliklarda yutish refleksining yo'qolishi va aspiratsiya xavfi mavjud bemorlarda ham traxeostomiya qo'llash katta klinik ahamiyat kasb etadi.

Traxeostomiya jarayonining klinik bosqichlari

Traxeostomiya jarayonining samaradorligi va xavfsizligi, avvalo, uning texnik jihatdan to'g'ri bajarilishiga bog'liqdir. Jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Dastlab bemor tayyorlanadi, ko'pincha reanimatsiya sharoitida u allaqachon sedatsiya ostida bo'ladi, lekin zarur hollarda qo'shimcha analgeziya yoki anesteziya qo'llaniladi. Bo'yin sohasi antiseptik eritmalar bilan ishlovdan o'tkaziladi, traxeyaning ikkinchi va to'rtinchi halqalari oralig'i belgilanadi. Keyingi bosqichda teri va teri osti to'qimalarida kesma qilinib, mushaklar ajratiladi va traxeyaning old devoriga chiqiladi. Traxeyada kichik teshik ochilib, maxsus traxeostomiya naychasi kiritiladi. Naycha bemorning terisiga fiksatsiya qilinadi va sun'iy nafas oldirish apparatiga ulanadi. Jarayon davomida qon ketish, traxeya devorining shikastlanishi yoki subkutan emfizema kabi asoratlarning oldini olish uchun qat'iy texnikaga rioya qilish talab etiladi.

Reanimatsiya amaliyotida qo'llanilishining klinik natijalari

Traxeostomiya reanimatsiya amaliyotida bir qator ijobiy klinik natijalarni beradi. Avvalo, bemorning nafas yo'llari doimiy nazorat ostida bo'ladi va ularning o'tkazuvchanligi kafolatlanadi. Intubatsiya naychasiga nisbatan traxeostomiya bemor uchun qulayroq sharoit yaratadi, chunki og'iz va hiqildoq sohalari bo'sh bo'ladi, bemor tezroq o'zini qulay his qila boshlaydi. Aspiratsion pnevmoniya xavfi sezilarli darajada kamayadi, shuningdek, ventilyatsiya parametrlarini barqaror ushlab turish imkoniyati oshadi. Reanimatsiya amaliyotida yana bir muhim natija shundaki, traxeostomiya





qo'llangan bemorlarda sedatsiya va analgeziya uchun dori-darmonlarga ehtiyoj kamayadi, bu esa organizmga ortiqcha yuklanishni kamaytiradi. Natijada, bemor hushyor holatga tezroq qaytadi, reabilitatsiya davriga tezroq o'tadi va davolanishning umumiy samaradorligi oshadi.

Asoratlari va ularning klinik ahamiyati

Har qanday jarrohlik aralashuv singari, traxeostomiya ham ma'lum xavflarga ega. Jarayonning erta davrida qon ketish, naychanning noto'g'ri joylashtirilishi, subkutan emfizema yoki o'tkir infeksiyon jarayonlar kuzatilishi mumkin. Uzoq muddatli parvarish davrida esa traxeyada stenozlar, granulyatsiya to'qimalarining hosil bo'lishi, traqueo-efozageal fistula, shuningdek, nutq va ovqatlanishda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bunday asoratlarning oldini olishda jarrohlik texnikasiga qat'iy rioya qilish, aseptika va antiseptika qoidalarini to'liq bajarish, shuningdek, bemor parvarishini sifatli tashkil etish hal qiluvchi rol o'ynaydi. Reanimatsiya sharoitida ushbu tadbirlarning to'g'ri bajarilishi traxeostomiya samaradorligini oshiradi va asoratlarni xavfini kamaytiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, reanimatsiya amaliyotida traxeostomiya nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini ta'minlovchi, o'tkir nafas yetishmovchiligi va yuqori nafas yo'llarining obstruksiyasida hayotni saqlab qoluvchi asosiy jarrohlik aralashuvlardan biridir. U nafaqat tezkor yordam ko'rsatishda, balki uzoq muddatli sun'iy nafas oldirish davrida ham bemor uchun qulay sharoit yaratadi. Traxeostomiya nafas yo'llarining aspiratsiyadan himoyasini ta'minlaydi, sun'iy ventilyatsiya parametrlarini barqarorlashtiradi va dori vositalarining haddan tashqari qo'llanishini kamaytiradi. Shu sababli, mazkur jarrohlik usulining reanimatsiya amaliyotidagi dolzarbligi bugungi kunda yanada ortib bormoqda. Traxeostomiya bemorning hayotini saqlab qolish, asoratlarni kamaytirish va umumiy davolash samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Miller's Anesthesia. 9th Edition. Elsevier, 2020.
2. Benumof JL. Airway Management. 2nd Edition. Mosby, 2017.
3. Kasyanov V.M. Reanimatologiya va intensiv terapiya. Toshkent, 2018.
4. Oh's Intensive Care Manual. 8th Edition. Butterworth-Heinemann, 2019.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-9

5. Tintinalli JE. Emergency Medicine: A Comprehensive Study Guide. 9th Edition, McGraw Hill, 2021.
6. Uzb. Respublikasi SSV klinik protokollari, 2023.
7. Mehta AB, Cooke CR. Tracheostomy in ICU patients. Clin Chest Med. 2016.

QURUQ KO‘Z SIMDROMINI, TASHXISLAS, TARQALISHI, DIAGNOSTIKASI VA UNI DAVOLASH

Esanova Nafisa Alisherovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali Otolaringologiya, oftalmologiya, onkologiya va tibbiy radiologiya kafedrası assissentı

Mamasaidova Sabrina Abduraxmon qizi

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali talabasi

sabrinamamasaidova4@gmail.com

Annotatsiya. Quruq ko'z sindromi (DES) yoki keratokon'yunktivit sicca (KCS) ko'z yoshi ishlab chiqarishning kamayishi yoki bug'lanishning ko'payishi natijasida yuzaga keladigan ko'z yoshi plyonkasining keng tarqalgan kasalligi bo'lib, turli xil belgilar va alomatlar bilan namoyon bo'ladi. Bir qator tizimlar ko'z sirtining fiziologik yaxlitligiga hissa qo'shadi va tizimning buzilishi simptomlarni keltirib chiqarishi yoki bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun fiziologik funktsiyaning yo'qligi yoki minimal buzilishi bilan quruq ko'zlarni aniq tashxislash kerak. Maqolada, shuningdek, turli xil kolloid dorilarni etkazib berish tizimlari va KCSni davolash uchun topikal oftalmik dori vositalarini etkazib berish tizimlarini ishlab chiqishdagi dolzarb muammolar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Quruq ko'z sindromi, keratokonjunktivit, ko'z yoshi, lakrimal bez, T-limfotsit, shox parda, rematoid artrit.

Kirish

Quruq ko'z sindromi (DES) - bu ko'z sirtining shikastlanishiga olib keladigan va ko'zning noqulaylik belgilari bilan bog'liq bo'lgan ko'zdan oldingi ko'z yoshi plyonkasining buzilishi. DES shuningdek keratokonjunktivit sicca (KCS), keratit sicca, sicca sindromi, kseroftalmiya, quruq ko'z kasalligi (DED), ko'z yuzasi kasalligi (OSD) yoki disfunktsional ko'z yoshi sindromi (DTS) yoki oddiygina quruq ko'zlar. Keratokonjunktivit sicca lotincha so'z bo'lib, uning so'zma-so'z tarjiması "shox parda va



kon'yunktivaning quruqligi"dir. "Sicca" inglizcha "desiccate" so'zining bir qismi ekanligini bilish foydali bo'lishi mumkin. Ko'zlar etarli darajada ko'z yoshlar ishlab chiqarmaydigan quruq ko'z sindromi "Sjögren sindromi" deb ham ataladi.

Quruq ko'z kasalligi ko'z yoshi pardasining beqarorligi bilan tavsiflanadi, bu ko'z yoshi ishlab chiqarishning etarli emasligi yoki ko'z yoshi plyonkasining yomon sifati tufayli bo'lishi mumkin, bu esa ko'z yoshi bug'lanishining kuchayishiga olib keladi. Shuning uchun quruq ko'zni asosan ikki guruhga bo'lish mumkin, ya'ni:

(1) suvli ishlab chiqarish etishmovchiligi quruq ko'z kasalligi;

(2) bug'lanishli quruq ko'z kasalligi.

Ko'z yoshining etarli emasligi interpalpebral ko'z yuzasiga zarar etkazadi va noqulaylik belgilari bilan bog'liq. Xalqaro quruq ko'z seminari (2007) quruq ko'zni ko'z yoshi va ko'z yuzasining multifaktorial kasalligi sifatida ta'riflagan, bu noqulaylik, ko'rish buzilishi va ko'z yoshi plyonkasining beqarorligi bilan ko'z yuzasiga potentsial shikastlanish belgilariga olib keladi. Ko'z yoshi plyonkasining osmolyarligi oshishi va ko'z yuzasining yallig'lanishi bilan birga keladi. DES vizual e'tiborni talab qiladigan o'qish, haydash va kompyuter bilan bog'liq ishlarni bajarish kabi ba'zi ishlarni bajarish qobiliyatining pasayishi bilan bog'liq. Bemorlar quruq ko'z alomatlarini doimiy va jiddiy ravishda boshdan kechiradilar, bu ularning hayot sifatiga ta'sir qiladi.

Quruq ko'z sindromining tarqalishi

Quruq ko'z sindromining tarqalishi yosh bilan ortadi. DES - bu aholining muhim foiziga, ayniqsa 50 yoshdan oshganlarga ta'sir qiluvchi ko'zlarning keng tarqalgan buzilishi. O'rta va keksa yoshdagi odamlar kontakt linzalaridan foydalanish, tizimli dori ta'siri, otoimmün kasalliklar va bu guruhlardagi refraktsion operatsiyalarning yuqori tarqalishi tufayli eng ko'p ta'sirlangan guruhdir. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi, shuningdek, keksalar o'rtasida prognoz qilinayotgan aholi sonining o'sishi hisobiga DES yuki ortib boraveradi. So'rovlar turli mamlakatlar va butun dunyo bo'ylab turli yosh guruhlari 5% dan >30% gacha bo'lgan DES tarqalishini taxmin qildi. Butun dunyo bo'ylab DES bilan kasallanganlarning taxminiy soni 25 dan 30 milliongacha. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, DES har qanday irqga ta'sir qilishi mumkin va erkaklarnikiga qaraganda ayollarda ko'proq uchraydi. Odatda menopauza boshlangan 50-52 yoshdagi





ayollarda estrogen va androgen gormonlari o'rtasida nomutanosiblik yuzaga keladi. Bu lakrimal bez va ko'z yuzasida yallig'lanishni qo'zg'atadi, lakrimal bez va ko'z sirtining normal gomeostatik ta'minotini buzadi. Rematoid artritli odamlarning 20% gacha KCS. Ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa shaxslar orasida Helicobacter pylori bilan kasallangan bemorlar, kompyuter foydalanuvchilari va uzoq muddatli kontakt linzalari kiyganlar kiradi.

Quruq ko'z sindromining sabablari

DES sabablari orasida ko'z yoshi ishlab chiqarishning kamayishi, ko'z yoshining haddan tashqari bug'lanishi va ko'z yoshi qatlamining shilliq yoki lipidlarini ishlab chiqarishdagi anormallik kiradi. 1995 yilda Lempning oldingi hisoboti KCSni ko'z yoshi etishmaydigan va bug'lanishli quruq ko'zlarga tasniflagan. Ko'z yoshi bezlari tomonidan ko'z yoshlari kam ishlab chiqarilishi tufayli quruq ko'z yoshi keksa bemorlarda, postmenopozal ayollarda va birlamchi Sjögren sindromi va revmatoid artrit kabi otoimmun kasalliklari bo'lgan bemorlarda uchraydi. Ko'z yoshi funktsional birligining disfunktsiyasi ko'z yoshi suyuqligi tarkibi va ko'z yoshi plyonkasi barqarorligining o'zgarishiga olib keladi ko'z sirtining yallig'lanishiga olib keladi. Ko'z etarli darajada ko'z yoshlarini chiqarmaydi, chunki ko'zning yallig'lanishga qarshi komponenti yo'q va ko'zning tirnash xususiyati nazorat qilinmaydi. Bu yallig'lanish hujayralarini, shu jumladan T-limfotsitlarni tananing immun tizimi tomonidan faollashtirishiga olib keladi. T-hujayralari ko'z yuzasi va bezlarning yallig'lanishiga olib keladigan sitokinlarni chiqaradi, buning natijasida g'ayritabiiy ko'z yoshlari va quruq ko'z belgilari.

Ko'zlar bug'lanib, quruq bo'lsa, ko'z yoshlari ko'proq bug'lanishi tufayli quriydi, chunki miltillashning kamayishi va qovoq yuzasi anomaliyalari. Atrof-muhit omillari, masalan, markaziy isitish, quruq iqlim, havo ifloslanishi, shamol, kimyoviy kuyishlar, kontakt linzalarining eskirishi yoki haydash, televizor tomosha qilish va kompyuter ishi tufayli miltillashning kamayishi ko'z yoshi plyonkasiga ta'sir qilishi va infeksiyaga, shox pardaning yarasiga va ko'rlikka olib kelishi mumkin. Ko'z yoshi suyuqligining bug'lanish yo'qolishi va quruq ko'zlar odatda lipid qatlamining etarli emasligi bilan bog'liq. Lipid qatlami asosiy suvli qatlamning bug'lanishini barqarorlashtiradi va sekinlashtiradi. Rosacea, blefarit va MGD (meibomiya bezining disfunktsiyasi) bug'lanishli quruq ko'zlarning asosiy sabablari hisoblanadi.





Quruq ko'z sindromining diagnostikasi

Diagnostik testlar turli maqsadlarda qo'llaniladi, masalan, klinik tadqiqotga muvofiqlikni baholash va o'zgarishlarni miqdoriy jihatdan kuzatish, oftalmologlar tomonidan har kuni klinik amaliyotda tashxis qo'yish va Sjögren sindromi kabi quruq ko'zni klinik sindromning bir qismi sifatida tavsiflash. So'nggi paytlarda ko'z yoshi plyonkasi parchalanish vaqti (TBUT), epiteliyaning bo'yalishi va ko'z yuzasi kasalliklari indeksi (OSDI) kabi testlar ko'z sirtining buzilishi, masalan, meibomian bezining disfunktsiyasi, quruq ko'zlar va umr bo'yi kompyuterdan foydalanish / qulaylik darajasi. Keratokonjunktivit sicca (KCS) tashxisi fizik tekshiruvdan olingan ma'lumotlarni birlashtirish va diagnostik testlarni o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Klinik belgilar va bemorning alomatlari o'rtasidagi zaif korrelyatsiya bir nechta testlardan foydalanishni talab qiladi. Odatda DESning mutlaq tashxisini qo'yish uchun 2 yoki undan ortiq test o'tkaziladi. Semptom so'rovnomalari DES tashxisini qo'yish va davolash ta'sirini baholash yoki kasallikning og'irligini baholash uchun ham ishlatilishi mumkin.

Davolash

Keratokonjunktivitni davolash usullari har xil. Davolashning maqsadlari quruq ko'z alomatlarini yo'qotish, bemorning qulayligini yaxshilash, ko'z yuzasi va ko'z yoshi plyonkasini normal holatga qaytarish va iloji bo'lsa, shox pardaning shikastlanishini oldini olishdir. Davolash ta'lim, atrof-muhit yoki dietani o'zgartirish, sun'iy ko'z yosh o'rnini bosuvchi vositalar, punktal tiqinlar va topikal va/yoki tizimli yallig'lanishga qarshi dori-darmonlardan jarrohlikgacha bo'lishi mumkin.

Sun'iy ko'z yoshlari - bu KCSda ko'z yoshi yetishmasligi bilan bog'liq quruqlik va tirnash xususiyati bilan davolash uchun ishlatiladigan moylovchi ko'z tomchilari. Yog 'yog'lari OTC mahsulotlari sifatida mavjud va odatda davolashning birinchi qatori hisoblanadi. Kasallikning engil shakllari kuniga to'rt marta moyli tomchilarni qo'llashni talab qiladi, og'ir holatlarda esa ko'proq (kuniga 10-12 marta) yuborish kerak. Ushbu OTC mahsulotlari, asosan, ularning tarkibiy qismlari, ko'rsatkichlari va konservantlarning mavjudligi bilan farqlanadi. Tsellyuloza va polivinil hosilalari, xondroitin sulfat va natriy gialuronat kabi tarkibiy qismlar ularning viskozitesini, ushlab turish vaqtini va ko'z yuzasiga yopishishini aniqlaydi.



Ko'z yoshi tomchilarining viskozitesini oshirish ta'sir muddatini uzaytiradi; ammo bu vaqtinchalik loyqa ko'rishga olib keladi. Bakterial ifloslanish xavfini kamaytirish va saqlash muddatini uzaytirish uchun sun'iy ko'z yoshlari ko'p dozali idishlarga konservantlar qo'shiladi. Ko'pgina oftalmik mahsulotlar konservantlarni o'z ichiga oladi va salbiy ta'sirlar xavfi ularni kuniga qabul qilish chastotasi va ulardan foydalanish davomiyligi bilan ortadi. Sun'iy ko'z yosh yirtuvchi mahsulotni tavsiya qilishda shifokor bemorning konservantlarga sezgirligini, foydalanish chastotasini, kasallikning og'irligini, konservantsiz mahsulot bilan ifloslanish xavfini va narxini hisobga olishi kerak.

Xulosa

Quruq ko'z kasalligining umumiy murakkabligi uni aniq tashxislash va davolashni qiyinlashtiradi. Aniq diagnostik ahamiyatga ega bo'lgan ob'ektiv testlarni ishlab chiqish va fiziologik funktsiyaning minimal buzilishi bilan kasallikni aniq tashxislash mumkin. KCS sabablari, belgilari va diagnostik testlari haqidagi so'nggi ma'lumotlar tibbiy boshqaruvni takomillashtirish uchun yaxshi imkoniyatlar yaratadi. Yangi potentsial dorilar va turli kolloid etkazib berish tizimlarini ishlab chiqish, shubhasiz, ushbu keng tarqalgan va zaiflashuvchi kasallikni yanada samarali davolash uchun umid nurini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. The definition and classification of dry eye disease: report of the Definition and Classification Subcommittee of the International Dry Eye WorkShop (2007). *Ocul Surf.* 2007 Apr;5(2):75-92.
2. Huang R, Su C, Fang L, Lu J, Chen J, Ding Y. Dry eye syndrome: comprehensive etiologies and recent clinical trials. *Int Ophthalmol.* 2022 Oct;42(10):3253-3272.
3. Craig JP, Nichols KK, Akpek EK, Caffery B, Dua HS, Joo CK, Liu Z, Nelson JD, Nichols JJ, Tsubota K, Stapleton F. TFOS DEWS II Definition and Classification Report. *Ocul Surf.* 2017 Jul;15(3):276-283.
4. King-Smith PE, Fink BA, Hill RM, Koelling KW, Tiffany JM. The thickness of the tear film. *Curr Eye Res.* 2004 Oct-Nov;29(4-5):357-68.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-9

5. King-Smith PE, Fink BA, Fogt N, Nichols KK, Hill RM, Wilson GS. The thickness of the human precorneal tear film: evidence from reflection spectra. *Invest Ophthalmol Vis Sci.* 2000 Oct;41(11):3348-59.

6. Chen Q, Wang J, Tao A, Shen M, Jiao S, Lu F. Ultrahigh-resolution measurement by optical coherence tomography of dynamic tear film changes on contact lenses. *Invest Ophthalmol Vis Sci.* 2010 Apr;51(4):1988-93.

7. Willcox MDP, Argüeso P, Georgiev GA, Holopainen JM, Laurie GW, Millar TJ, Papas EB, Rolland JP, Schmidt TA, Stahl U, Suarez T, Subbaraman LN, Uçakhan OÖ, Jones L. TFOS DEWS II Tear Film Report. *Ocul Surf.* 2017 Jul;15(3):366-403.

8. Peng CC, Cerretani C, Braun RJ, Radke CJ. Evaporation-driven instability of the precorneal tear film. *Adv Colloid Interface Sci.* 2014 Apr;206:250-64.





ATLETIK GIMNASTIK VOSITALARI ORQALI CHAQIRIQQACHA YOSHLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI

Haydarov Muzaffar Urmanovich

Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti umumqo'shin tayyorlash sikli o'qituvchisi:

Annotatsiya: Ushbu maqolada chaqiriqqacha yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda atletik gimnastikaning o'рни va roli yoritilgan. Mashg'ulotlar jarayonida qo'llaniladigan vositalar, ularning sog'liqni mustahkamlashdagi ahamiyati, jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qo'shadigan hissasi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, atletik gimnastikaning yoshlarning harbiy xizmatga tayyorgarligini ta'minlashdagi ahamiyati ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Atletik gimnastika, chaqiriqqacha yoshlar, jismoniy sifatlar, mushak kuchi, sog'liqni mustahkamlash, sport mashqlari, harbiy xizmat, tayyorgarlik.

Asosiy qism: Bugungi globallashuv jarayonida mamlakatning mudofaa qudrati ko'p jihatdan yoshlarning sog'lomligi va jismoniy tayyorgarligiga bog'liq. Shu boisdan ham chaqiriqqacha yoshlarning sog'lom va bardoshli bo'lib ulg'ayishi davlatimiz uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Jismoniy tayyorgarlikni oshirishda atletik gimnastika eng samarali vositalardan biri sifatida qaraladi. Chaqiriqqacha yoshlarning jismoniy tayyorgarligi mamlakat mudofaa salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda yoshlarning sog'lom, kuchli, bardoshli va intizomli bo'lishi nafaqat armiyada, balki kundalik hayotda ham zarur. Bu jarayonda atletik gimnastika samarali vosita hisoblanadi.

Atletik gimnastika — bu mushaklarni rivojlantirish, kuchni oshirish, gavnani tarbiyalash va funksional imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan maxsus mashqlar majmuasidir. Unda asosan shtanga, gantel, turnik, brusya, arqon, gimnastika skameykalari kabi vositalardan foydalaniladi. Shuningdek, tana vazniga asoslangan mashqlar – push-up, press, plank, sakrashlar ham keng qo'llanadi.



Atletik gimnastikaning chaqiriqqacha yoshlar uchun afzalliklari:

Mushak va suyak tizimini rivojlantirish.

Mashqlar suyak va bo'g'imlarni mustahkamlaydi, mushak massasini oshiradi. Ayniqsa, bel, yelka va oyoq mushaklarining kuchli bo'lishi harbiy tayyorgarlikda juda zarur.

Chidamlilik va tezkorlikni shakllantirish.

Atletik mashqlarni jismoniy tarbiya darslari va qo'shimcha to'garaklarda tizimli bajarish yurak-qon tomir tizimining ish faoliyatini yaxshilaydi, nafas olish organlarini kuchaytiradi. Bu esa yoshlarning uzoq masofaga yugurish, saf yurish yoki boshqa og'ir mashqlarga bardosh berishini ta'minlaydi.

Motorik ko'nikmalarni rivojlantirish.

Harbiy xizmatda chaqqonlik, tez fikrlash va tezkor qaror qabul qilish talab etiladi. Atletik gimnastikada bajariladigan mashqlar koordinatsiya, muvozanat va tezkor harakat qobiliyatini kuchaytiradi.

Psixologik tayyorgarlik.

Sport mashqlari nafaqat tana, balki ong uchun ham foydalidir. Atletik gimnastika yoshlarni qat'iyatli, sabrli, o'ziga ishonchli va intizomli bo'lishga o'rgatadi. Bu fazilatlar harbiy xizmatda muhim ahamiyatga ega.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish.

Muntazam shug'ullanish yoshlarni yomon odatlardan yiroqlashtiradi, ovqatlanish tartibiga rioya qilishga undaydi, dam olish va uyquni me'yorlashtirishga yordam beradi.

Jamoaviylik va vatanparvarlik ruhini oshirish.



Guruh shaklida mashg'ulotlar o'tkazish o'zaro hamjihatlikni kuchaytiradi, yoshlarni bir-biriga ko'mak berishga, hamkorlikda ishlashga o'rgatadi. Natijada, ular jamiyatda ham, harbiy xizmatda ham ishonchli safdosh bo'lib yetishadi.

Atletik gimnastika chaqiriqqacha yoshlarning jismoniy tayyorgarligida asosiy yo'nalishlardan biri bo'lib, ularning kuch, chidamlilik, tezkorlik, chaqqonlik va psixologik barqarorligini ta'minlashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois, uni o'quv darslarida, sport to'garaklarida, harbiy-sport musobaqalarida keng joriy etish bugungi kun talabidir.

Xulosa: Atletik gimnastika vositalaridan foydalanish chaqiriqqacha yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda asosiy manbalardan biridir. U yoshlarning kuchini, chidamliligini, epcilligini va ruhiy barqarorligini shakllantiradi. Bundan tashqari, muntazam mashg'ulotlar sog'liqni mustahkamlaydi, zararli odatlardan yiroq bo'lishga yordam beradi va sog'lom turmush tarzini qaror toptiradi. Atletik gimnastikaning harbiy xizmatga tayyorgarlikdagi o'rni ham beqiyosdir. Chunki armiyada xizmat qiladigan yigitlar ko'plab jismoniy va ruhiy yuklamalarga duch keladi. Bunday yuklamalarga bardosh berish uchun esa atletik gimnastika vositalari eng samarali tayyorgarlik hisoblanadi. Shu sababli, maktab va kollejlarda, sport maktablari hamda maxsus tayyorgarlik dasturlarida atletik gimnastika mashqlariga keng o'rin berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ofurov A. *Sport nazariyasi va metodikasi*. – Toshkent: Fan, 2017.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari: "Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish to'g'risida".
3. Rasulov I. *Harbiy sport turlari asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy gvardiyasi nashriyoti, 2020.
4. Xayrullaev B. *Jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
5. www.olympic.uz, www.sportedu.uz



ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY KASBLAR: BARQARORLIK VA ISTIQBOL

Turobova Oysara Artikovna

Surxandaryo viloyati Angor TAKM AKT rahbari

oysaraturopova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy va an'anaviy kasblarning afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan. Yoshlarning kasb tanlash jarayonida qisqa muddatli daromad bilan uzoq muddatli istiqbolni uyg'unlashtirish zarurligi ta'kidlangan. Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar siyosati, davlat dasturlari va farmonlari asosida zamonaviy kasblarning jamiyatdagi o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy kasblar, an'anaviy kasblar, yoshlar siyosati

Русский язык

Аннотация: В данной статье рассматриваются преимущества и недостатки современных и традиционных профессий. Подчеркивается необходимость для молодежи учитывать не только краткосрочный доход, но и долгосрочную перспективу при выборе профессии. На основе политики Президента Шавката Мирзиёева, государственных программ и указов раскрывается значение современных профессий в обществе.

Ключевые слова: современные профессии, традиционные профессии, молодежная политика

English language

Abstract: This article analyzes the advantages and disadvantages of modern and traditional professions. It emphasizes the importance for youth to balance short-term



income with long-term prospects when choosing a career. Based on President Shavkat Mirziyoyev's youth policy, state programs, and decrees, the role of modern professions in society is highlighted.

Keywords: modern professions, traditional professions, youth p

Kirish

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonimizda yoshlarning zamonaviy kasblarga bo'lgan qiziqishi sezilarli darajada oshib bormoqda. Dasturchilik, grafik dizayn, SMM mutaxassisligi, blogerlik kabi sohalar qisqa muddatda o'rganilib, tezkor daromad keltirishi mumkin. Shu bilan birga, ayrimlar bu kasblarni vaqtinchalik deb hisoblab, ularning uzoq muddatli istiqboliga shubha bilan qarashmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Zamonaviy kasblarni egallash – yoshlarning iqtisodiy mustaqilligi va kelajagi uchun muhim omildir" [1].

Shunday ekan, zamonaviy kasblarning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilish, an'anaviy kasblar bilan solishtirish bugungi kun yoshlari uchun dolzarb masaladir.

Asosiy qism

1. Zamonaviy kasblarning afzalliklari

"Tezkorlik – zamon talabi", deganlaridek, bugungi dunyo tez o'zgarayotgani bois, yangilikka moslashgan inson muvaffaqiyatga erishadi. Zamonaviy kasblarning ustun jihati – ularni qisqa vaqt ichida o'rganish va natijaga erishishdir. Masalan, dasturchi yoki dizayner bo'lish uchun to'rt yillik oliy ta'lim shart emas, balki qisqa kurslar orqali ham yuqori daromadga chiqish mumkin [6].

Shuningdek, blogerlik sohasi ham keng ommalashmoqda. Hozirda ko'plab yoshlar turli mavzularda kontent ishlab chiqarib, katta auditoriya yig'moqda va o'z biznesini rivojlantirmoqda. Bu holat jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatmoqda [7].

Global imkoniyatlar va islohotlar





Zamonaviy kasblarning yana bir muhim jihati – ular global miqyosda ishlash imkoniyatini beradi. Frilanserlik, startaplar, xorijiy mijozlar bilan ishlash – bularning barchasi yoshlar uchun keng yo‘llar ochmoqda. Shu maqsadda O‘zbekistonda ham yirik islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2018-yilda qabul qilingan “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi yoshlarning kasb-hunar egallashi, o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishi uchun huquqiy asos yaratib berdi [3]. Shuningdek, 2020-yilda qabul qilingan “Ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish to‘g‘risida”gi Farmon esa zamonaviy bilimlarni yoshlar o‘rtasida keng targ‘ib qilishni ko‘zda tutadi [4].

Prezident Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida ham yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanini ta’kidlagan [1].

2. An’anaviy kasblarning barqarorligi

Har bir tanganing ikki tomoni bo‘lgani kabi, zamonaviy kasblar doimo barqaror bo‘lavermaydi. Texnologiyalar tez rivojlanar ekan, ayrim sohalar eskirib qolishi mumkin. Masalan, 10 yil oldin talabgir bo‘lgan IT yo‘nalishlari bugun o‘z ahamiyatini yo‘qotgan [6].

An’anaviy kasblarning afzalligi esa – ularning vaqt sinovidan o‘tganligidir. Tibbiyot, muhandislik, pedagogika, huquqshunoslik kabi sohalar jamiyat rivojlanishi uchun zarur va ularga doimo talab bo‘ladi. Bu haqda I. Karimov ham o‘z asarida ilm va kasbning barqarorligini alohida ta’kidlagan edi [5].

Uyg‘unlik zarurati

Shaxsan menimcha, zamonaviy va an’anaviy kasblarni qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Eng to‘g‘ri yo‘l – ularni uyg‘unlashtirishdir. Masalan, huquqshunos IT ko‘nikmalarini ham egallasa, muhandis biznesni boshqarishni o‘rgansa – bu ularning barqarorligini yanada mustahkamlaydi [8].

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Yoshlarimiz o‘z kelajagini mustahkamlash uchun doimiy o‘qib, rivojlanib borishi lozim” [2]. Demak, eng muhim narsa – qisqa muddatli manfaatni emas, balki uzoq muddatli istiqbolni hisobga olishdir.





Xulosa

Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar. Zamonaviy kasblar yoshlar uchun tezkor natija berishi mumkin, ammo ularning barqarorligi kafolatlanmagan. An’anaviy kasblar esa vaqt sinovidan o‘tgan, biroq ularga ham zamonaviy yondashuv zarur.

Shunday ekan, har bir yosh kasb tanlayotganda nafaqat daromadni, balki uzoq muddatli istiqbolni, barqarorlikni va jamiyat ehtiyojlarini ham inobatga olishi lozim. Zero, donishmandlar aytganidek: “Inson o‘zi kasb tanlaydi, ammo vaqt o‘tib kasb ham insonni tanlaydi.”

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi. – Toshkent, 2018.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. Ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish to‘g‘risida. – Toshkent, 2020.
5. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
6. Jo‘rayev R. O‘zbekistonda zamonaviy kasblar: imkoniyat va istiqbollar. – Toshkent: TDYU ilmiy jurnali, 2022.
7. Qodirov B. Innovatsion ta’lim va zamonaviy kasb-hunarlar bozorining rivojlanishi. – Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim, 2021.
8. Xolmurodov D. O‘zbekistonda yoshlarning kasbiy rivojlanishi: muammo va yechimlar. – Toshkent: Yoshlar



JAHON IQTISODIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR VA ULARNING O‘ZBEKISTON MINTAQALARI IJTIMOY-IQTISODIY BARQARORLIGIGA TA’SIRI

Ismoilov Samariddin Akbaraliyevich

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

KJIXIM 3-kurs talabasi

ismoilovsamariddin@icloud.com.

+998991747720

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

ANNOTATSIYA

Jahon iqtisodiyotidagi zamonaviy o‘zgarishlar O‘zbekiston mintaqalari uchun murakkab va ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatmoqda. Xalqaro savdo oqimlari, energiya resurslari narxlaridagi tebranishlar, raqamli transformatsiya jarayonlari, mehnat migratsiyasi va global ekologik muammolar mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga bevosita ta’sir etmoqda. Ushbu maqolada mazkur omillarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning hududiy rivojlanish jarayonlariga ijobiy va salbiy ta’sirlari hamda barqarorlikni ta’minlash strategiyalari tahlil qilingan.

АННОТАЦИЯ

Современные изменения в мировой экономике оказывают сложное и многогранное влияние на регионы Узбекистана. Международные торговые потоки, колебания цен на энергоресурсы, процессы цифровой трансформации, трудовая миграция и глобальные экологические проблемы напрямую отражаются на социально-экономической стабильности регионов. В статье проанализирована взаимосвязь данных факторов, их положительное и отрицательное воздействие на региональное развитие, а также стратегии обеспечения устойчивости.

ABSTRACT

The recent changes in the global economy have a complex and multifaceted impact on the regions of Uzbekistan. International trade flows, fluctuations in energy prices, digital transformation processes, labor migration, and global environmental challenges directly affect the socio-economic stability of the regions. This article analyzes the



interrelation of these factors, their positive and negative effects on regional development, and the strategies aimed at ensuring sustainability.

Kalit soʻzlar

Jahon iqtisodiyoti, Oʻzbekiston mintaqalari, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, globalizatsiya, raqamli transformatsiya, migratsiya, ekologik muammolar, diversifikatsiya.

Ключевые слова

Мировая экономика, регионы Узбекистана, социально-экономическая стабильность, глобализация, цифровая трансформация, миграция, экологические проблемы, диверсификация.

Keywords

Global economy, regions of Uzbekistan, socio-economic stability, globalization, digital transformation, migration, environmental issues, diversification.

Jahon iqtisodiyotidagi oʻzgarishlar bugungi kunda barcha davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globalizatsiya jarayonlari, xalqaro savdo oqimlari, moliyaviy bozorlarning dinamikasi, xomashyo narxlaridagi tebranishlar va yangi texnologiyalarning jadal rivojlanishi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita taʼsir koʻrsatmoqda. Oʻzbekiston ham mazkur jarayonlardan chetda qolmaydi. Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik, aholining farovonligi va hududiy rivojlanish imkoniyatlari global omillarga chambarchas bogʻliqdir.

Avvalo, jahon iqtisodiyotidagi asosiy trendlardan biri — raqamli transformatsiya va sunʼiy intellekt asosidagi iqtisodiy faoliyatning kengayishidir. Bu jarayon ishlab chiqarish, xizmat koʻrsatish va moliyaviy tizimlarni yangilab, samaradorlikni oshirmoqda. Shu bilan birga, raqamli tafovut ham kuchayib bormoqda. Oʻzbekiston mintaqalarida raqamli infratuzilmaning notekis rivojlanishi ayrim hududlarda iqtisodiy faoliyatni jadallashtirsa, boshqa hududlarda ortda qolish xavfini yuzaga keltirmoqda. Masalan, Toshkent shahri va yirik sanoat markazlarida IT sektori tez rivojlanayotgan boʻlsa, chekka qishloqlarda bu imkoniyatlar hali toʻliq shakllanmagan.

Ikkinchi muhim jihat — energiya va xomashyo bozorlaridagi oʻzgarishlardir. Dunyo boʻyicha energiya resurslariga talab ortib, neft va gaz narxlarining tebranishi kuzatilmogʻda. Bu Oʻzbekiston uchun ikki tomonlama taʼsirga ega: bir tomondan, energiya





eksporti va ichki iste'molning diversifikatsiyasi talab etiladi; ikkinchi tomondan, narxlarning beqarorligi budjet daromadlariga va aholining xarid qobiliyatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Mintaqalar kesimida Surxondaryo yoki Qashqadaryo kabi yoqilg'i resurslariga boy hududlar ko'proq foyda ko'rishi mumkin, biroq boshqa hududlarda iqtisodiy muvozanatni ta'minlash murakkablashadi.

Uchinchi omil — xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi va tashqi bozorlar bilan integratsiya jarayonidir. O'zbekistonning eksport-import hajmi, savdo sheriklari bilan aloqalari jahon iqtisodiy sikllariga bevosita bog'liq. Masalan, Xitoy, Rossiya va Turkiya bilan bo'lgan hamkorlikdagi o'zgarishlar mintaqaviy sanoat tarmoqlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Savdo oqimlari oshishi mintaqalarda yangi ish o'rinlari yaratadi, lekin tashqi bozorlar keskin qisqarganda ayrim hududlarda ishlab chiqarishning to'xtashi va ishsizlik xavfi yuzaga keladi.

To'rtinchi yo'nalish — migratsiya va mehnat bozori bilan bog'liq global o'zgarishlar. Jahon iqtisodiyotidagi beqarorlik, pandemiya va geosiyosiy vaziyat sababli xalqaro mehnat migratsiyasi yangi shakl kasb etmoqda. O'zbekistonning ko'plab mintaqalari, xususan, Andijon, Namangan va Farg'ona hududlari xorijiy mehnat migratsiyasi hisobiga valyuta tushumlarini ta'minlamoqda. Shu bois jahon mehnat bozoridagi o'zgarishlar bevosita ushbu mintaqalarning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. Migrantlarning pul o'tkazmalari kamayishi ichki iste'mol va ijtimoiy hayot sifatiga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Bundan tashqari, global iqlim o'zgarishlari ham jahon iqtisodiyotining muhim yo'nalishiga aylandi. Qurg'oqchilik, suv resurslari tanqisligi, ekologik muammolar O'zbekiston mintaqalari uchun dolzarbdir. Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati suv tanqisligidan eng ko'p zarar ko'rmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga, demak, oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sir qiladi. Shu sababli global ekologik muammolarning iqtisodiy oqibatlari hududiy barqarorlikni bevosita belgilaydi.

Mintaqalarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun jahon iqtisodiyoti ta'sirini yumshatish strategiyalari ishlab chiqilmoqda. Ularga iqtisodiy diversifikatsiya, yangi investitsiya loyihalarini jalb etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, eksport imkoniyatlarini kengaytirish kiradi. Hududiy iqtisodiy dasturlar va infratuzilma loyihalari orqali mintaqalarning global o'zgarishlarga chidamliligi oshirilmoqda. Masalan, qishloq xo'jaligida klaster tizimini rivojlantirish yoki turizm



infratuzilmasini kengaytirish jahon bozorlaridagi salbiy o'zgarishlarni qisman kompensatsiya qilishi mumkin.

Yakuniy natijada, jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar O'zbekiston mintaqalari uchun imkoniyat ham, xavf ham tug'diradi. Innovatsion yondashuv, iqtisodiy diversifikatsiya, hududiy resurslardan samarali foydalanish va xalqaro integratsiyani chuqurlashtirish orqali ushbu ta'sirlarni ijobiy natijalarga yo'naltirish mumkin. Shu tariqa, mamlakatning barcha hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi farovonligini oshirish global iqtisodiy muhitda to'g'ri strategiyalarni tanlashga bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov Q.X., Jo'rayev Q. **Jahon iqtisodiyoti asoslari.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
2. Karimov A. **O'zbekiston iqtisodiyotining globallashtirish sharoitida rivojlanishi.** – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
3. Ходиев Б.Ю., Мухамедиев А.Н. **Мировая экономика.** – Ташкент: Восток, 2019.
4. Гулямов С.С., Шарипов О.Ш. **Цифровая экономика и устойчивое развитие регионов.** – Ташкент: «IQTISOD-MOLIYA», 2021.
5. United Nations. **World Economic Situation and Prospects 2024.** – New York: United Nations, 2024.
6. World Bank. **Uzbekistan Country Economic Update.** – Washington D.C.: The World Bank Group, 2023.
7. International Monetary Fund (IMF). **Regional Economic Outlook: Middle East and Central Asia.** – Washington D.C.: IMF, 2023.
8. OECD. **Globalisation and Regional Development: Policy Challenges.** – Paris: OECD Publishing, 2022.
9. Xolboev N.R. **O'zbekiston mintaqalari iqtisodiyotida barqarorlikni ta'minlash strategiyalari** // Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–59.
10. FAO. **Climate Change and Food Security in Central Asia.** – Rome: FAO, 2022.



FONETIK RANG-BARANGLIKDAN GLOBAL TILGACHA: INGLIZ AKSENTLARINING ILMIY TAHLILI

Raxmiddinova Madina Mansurovna

“Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili”

ta’lim yo’nalishi 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Bo’riyeva Shahnoza

Annotatsiya: Globallashuvning mislsiz sur’atlarda kechayotgan davrida ingliz tili xalqaro muloqotning bosh vositasiga aylanib, “lingua franca”(umumiy til)” maqomini qo’lga kiritdi. Ushbu keng qamrovli lingvistik manzarada aksent hodisasi(ya’ni talaffuz uslubi) faqat fonetik tafovutlar majmuasi bo’lib qolmay, balki shaxsiy identitet, madaniy meros va ijtimoiy-siyosiy tabaqalanishning ko’p qirrali belgisi sifatida namoyon bo’ladi. Ingliz tili aksentlarini o’rganish jarayoni faqat fonologik o’zgarishlarni emas, balki sotsiolingvistika, psixologiya hamda madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarini ham qamrab oladi va shu orqali fanlararo tadqiqot uchun sermahsul zamin yaratadi. Mazkur maqola ingliz tili aksentlarini uch o’zaro bog’liq nuqtai nazardan tahlil qilishni maqsad qiladi: struktural, ijtimoiy va psixologik. Struktural jihat ingliz tilining turli variantlaridagi fonetik va prosodik xususiyatlarni, xususan Received Pronunciation, General American, Avstraliya inglizi va postkolonial hududlarda shakllangan “Yangi ingliz tillari”ni qamrab oladi. Ijtimoiy jihat esa aksentlarning obro’, stereotip va ko’p tilli jamiyatlardagi kuch munosabatlarini shakllantirishdagi rolini yoritadi. Psixologik yo’nalish esa aksentning inson idroki, ishonchlilik darajasi va kommunikativ samaradorlikka ta’sirini ochib beradi.

Bundan tashqari, tadqiqot global muloqotda lingvistik xilma-xillik bilan tushunarlilik o’rtasidagi ziddiyatni ham tahlil qiladi. Ba’zi aksentlar yuqori nufuzli sanalsa, boshqalari stigmatizatsiya qilinadi, bu esa til o’rganuvchilar orasida lingvistik beqarorlik va identitet muammolarini yuzaga keltiradi. Ingliz tili ta’limida esa “standartlashtirilgan” aksentlarning hukmronligi autentiklik, neytrallik va qulaylik haqidagi muhim savollarni tug’diradi.



Xulosa qilib aytganda, ingliz tili aksentlari faqat lingvistik hodisa emas, balki insoniyat muloqotini shakllantiruvchi ijtimoiy-madaniy konstrukt sifatida ham muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqola lingvistik xilma-xillik, madaniy identitet va ingliz tilining kelajakdagi rivojlanish istiqbollari borasida ilmiy diskursga o‘z hissasini qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: Ingliz tili aksentlari; fonetika; fonologik tafovutlar; prosodiya; dialektologiya; Received Pronunciation (RP); General American; Avstraliya inglizi; Hind inglizi; yangi ingliz tillari; lingvistik xilma-xillik; globalizatsiya va til; lingua franca; sotsiolingvistika; aksent va ijtimoiy identitet; stereotip va stigma; til va ijtimoiy tabaqalanish; lingvistik prestij; kommunikativ samaradorlik; xorijiy aksent kompleksi; psixolingvistika; idrok va talaffuz; madaniyatlararo kommunikatsiya; til siyosati; standartlashtirish; autentiklik; neytral aksent; global kommunikatsiya; ta’lim va talaffuz; til va madaniyat munosabatlari; ingliz tilining kelajagi.

Kirish: Globallashuv jarayoni insoniyat hayotining barcha jabhalarini qamrab olayotgan bugungi davrda til — eng muhim kommunikativ vosita sifatida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ingliz tili xalqaro muloqot, fan, ta’lim, siyosat va madaniyat sohalarida “lingua franca” maqomiga ega bo‘lib, dunyo miqyosida eng ko‘p qo‘llanilayotgan tilga aylandi. Shu bilan birga, ingliz tilining talaffuz tizimi va unda shakllangan aksentlar nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik hodisa sifatida alohida ilmiy qiziqish uyg‘otmoqda. Aksent tushunchasi fonetik tizimdagi ohangdorlik, urg‘u, intonatsiya va tovushlarning o‘ziga xos talaffuzi orqali namoyon bo‘lib, shaxsning hududiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqei hamda madaniy identiteti haqida muayyan axborot beradi. Ingliz tilidagi aksentlarning xilma-xilligi — Britaniyaning Received Pronunciation va Cockney aksentidan tortib, Amerika, Avstraliya, Hind va boshqa “Yangi ingliz tillari”gacha — tilning tarixiy taraqqiyoti, ko‘p millatli jamiyatlar va globalizatsiya oqibatida yuzaga kelgan murakkab jarayonlarning mahsulidir. Bugungi kunda aksentlar masalasi sotsiolingvistika, psixolingvistika, fonetika va madaniyatshunoslik kabi bir qator ilmiy sohalarining kesishgan nuqtasida o‘rganilmoqda. Chunki aksent nafaqat fonologik hodisa, balki ijtimoiy nufuz va stereotiplarni belgilovchi, kommunikativ samaradorlikni oshiruvchi yoki pasaytiruvchi, shuningdek, inson psixologiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi omil sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ba’zi aksentlar “prestijli” deb baholansa, boshqalari



“stigmatizatsiya” qilinadi. Bu esa til o‘rganuvchilar orasida lingvistik ishonchsizlik, “xorijiy aksent kompleksi” va identitet muammolarini yuzaga keltiradi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tilidagi aksentlarning fonetik-struktural, ijtimoiy-sotsiolingvistik hamda psixologik jihatlarini tahlil qilish, ularning global kommunikatsiya, ta’lim jarayoni va madaniyatlararo aloqalardagi o‘rnini yoritishdan iboratdir. Shu orqali maqola ingliz tilining zamonaviy taraqqiyoti, lingvistik xilma-xillik va kelajakdagi standartlashuv jarayonlari haqida ilmiy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

Muhokama: Ingliz tili zamonaviy global til sifatida nafaqat lug‘at boyligi yoki grammatik tizimi bilan, balki uning turli aksentlari orqali shakllangan ko‘p qirraliligi bilan ham ajralib turadi. Aksent — bu insonning ijtimoiy, geografik va madaniy kelib chiqishi haqidagi eng muhim belgidir. Tilshunoslikda aksentlar ko‘pincha prestij, stigma, identitet va kommunikativ samaradorlik masalalari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Ingliz tilidagi aksentlar: ijtimoiy-lingvistik va madaniy tahlil ingliz tili bugungi kunda nafaqat global kommunikatsiya vositasi, balki turli madaniyat va jamiyatlarni bog‘lovchi ko‘prik sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Tilning bu qudrati, eng avvalo, uning ichki xilma-xilligi, ya’ni turli aksentlar orqali namoyon bo‘ladi. Aksent inson nutqining fonetik qiyofasini belgilash bilan birga, uning ijtimoiy kelib chiqishi, madaniy muhitda tutgan o‘rni va shaxsiy identitetini ham ochib beradi. Shu bois ingliz tilidagi aksentlarni tahlil qilish nafaqat fonetik farqlarni ko‘rsatish, balki ularning ijtimoiy va madaniy ma’nolarini yoritish demakdir. Tarixiy jihatdan Buyuk Britaniya til makonida shakllangan Received Pronunciation (RP) jamiyatda obro‘ va nufuz ramzi sifatida qaralgan. “Queen’s English” deb ataladigan bu talaffuz shakli XIX asr va XX asr boshlarida ingliz aristokratiyasi hamda ilmiy elitasi nutqining asosiy ko‘rinishi bo‘lgan. RP non-rhotic xususiyatga ega bo‘lib, so‘z oxiridagi r tovushi talaffuz qilinmaydi: car [ka:], teacher [ti:tʃə]. Bugungi kunda RP hali ham yuqori tabaqa va rasmiy nutq bilan bog‘liq bo‘lsa-da, ijtimoiy ko‘lamda uning mavqei qisman pasaygan, chunki u ko‘plar tomonidan elitistik masofa ramzi sifatida qabul qilinadi. RP’ga qarama-qarshi holda Londondagi ishchi sinf aksenti — Cockney xalqchilligi bilan ajralib turadi. Unda fonetik innovatsiyalar, masalan, th-fronting (*think* → *fink*, *brother* → *bruvva*), glottal stop (*bottle* → *bo’le*) va h-dropping (*house* → *’ouse*) kuzatiladi. Bu aksent ko‘p hollarda stigmatizatsiya qilinadi, biroq ayni paytda London madaniy merosining ajralmas qismi sifatida qadrlanadi. Zamonaviy





musiqa, kino va teatrda Cockney aksenti samimiyat va xalqchil ruh ifodasi sifatida qoʻllanilib, jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalanishlarga qarshi turuvchi bir ramzga ham aylangan. Atlantika oshib oʻtganimizda, bizni General American (GA) aksenti kutib oladi. Bu talaffuz shakli AQShda “neytral” deb qaraladi va xalqaro maydonda eng tushunarli variant sifatida tan olingan. Uning asosiy fonetik belgisi rhotic talaffuz boʻlib, soʻzdagi r tovushi doimo talaffuz qilinadi: *car* [kaɹ], *hard* [haɹd]. Bundan tashqari, GA'da dance kabi soʻzlar [dæns] tarzida aytiladi, RP'dagi [da:ns] emas. Shu sababli u xalqaro televideniye va ommaviy axborot vositalarida keng tarqalgan boʻlib, CNN va VOA kabi kanallarda aynan GA aksenti qoʻllaniladi. Til oʻrganuvchilar uchun ham GA koʻpincha asosiy model sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, AQSh janubiy shtatlariga xos Southern American English aksenti oʻziga xos choʻzilish (*drawl*) va diftonglarning qisqarishi bilan ajralib turadi. Masalan, *ride* [ra:d] tarzida talaffuz qilinadi. Bu aksent koʻpincha mehmondoʻstlik, samimiylik bilan bogʻlanadi, ammo ayrim stereotiplarda “qoloqlik” belgisi sifatida talqin qilinadi. Tilshunoslar taʼkidlaganidek, bunday stereotiplar lingvistik hodisaga emas, balki ijtimoiy xayolotga asoslangan boʻlib, u diskriminatsiyaning bir shakli sifatida namoyon boʻladi. Ingliz tilining yanada keng qamrovli variantlaridan biri — Australian Englishdir. Bu aksent qisqa va jonli talaffuzi, shuningdek, qisqartmalar bilan mashhur: *afternoon* → *arvo*, *football* → *footy*. Shuningdek, *mate* [maɪt], *day* [daɪ] tarzida aytiladi. Australian English koʻpincha erkinlik, samimiylik va ochiqkoʻngillik ramzi sifatida qabul qilinadi. Avstraliya jamiyatida bu aksent milliy identitetning ajralmas qismi boʻlib, ingliz tilining mustaqil shakllaridan biri sifatida global maydonda oʻz oʻrniga ega. Shuningdek, postkolonial tilshunoslikda alohida oʻrin tutuvchi Indian English ham muhimdir. Bu aksentda retrofleks undoshlar ishlatiladi: *very* [veri]. Inglizcha gaplarga hindcha intonatsiya qoʻshilishi ham uni oʻziga xos qiladi. Hindiston kabi koʻp tilli jamiyatda ingliz tili taʼlim, biznes va siyosatning asosiy vositasiga aylangan. Shu sababli Indian English nafaqat mahalliy muloqot tili, balki xalqaro IT sanoati va biznes olamida keng tarqalgan global “lingvistik brend” sifatida namoyon boʻlmoqda. Koʻrinib turibdiki, ingliz tilidagi aksentlar nafaqat fonetik farqlarda, balki ijtimoiy-hududiy tafovutlar, madaniy qadriyatlar va identitet masalalarida ham oʻz aksini topadi. RP obroʻ ramzi boʻlsa, Cockney samimiylikni, GA neytrallikni, Southern English mehmondoʻstlikni, Australian English erkinlikni, Indian English esa postkolonial oʻziga xoslikni ifodalaydi.





Xulosa: Ingliz tili aksentlari — bu fonetik tizimdagi oddiy o‘zgarish emas, balki jamiyatning ko‘zgusi, madaniyatning aks-sadosi va inson tafakkurining ohangdor jilvasidir. Har bir aksent o‘zida tarixning izlarini, milliy mentalitetning ohangini va jamiyatning ruhiy manzarasini mujassam etadi. Shu bois aksentni tadqiq etish — bu nafaqat tovushlar uyg‘unligini, balki insoniyatning turfa xil ijtimoiy-ma’naviy qiyofasini o‘rganish demakdir. Globallashuv jarayonida ingliz tili dunyoning barcha nuqtalariga singib bormoqda. U bilan birga, Received Pronunciationning nufuzli ohangi, General Americanning qulay soddaligi, Indian Englishning o‘ziga xos ritmi yoki Nigerian Englishning betakror tembri tilshunoslikning boy mozaikasini hosil qilmoqda. Har bir aksent fonetik nuqtai nazardan turlicha tovush tizimlarini yaratibgina qolmay, balki o‘z ortida tarixiy jarayonlar, kolonial meros, migratsiya oqimlari va ijtimoiy tafakkur silsilasini ham olib keladi. Aksentlar masalasida eng muhim jihatlardan biri — ularning ijtimoiy bahosi. Ba’zan bir aksent “*prestijli*” sifatida qabul qilinib, yuqori maqom ramziga aylanadi, boshqasi esa “stigma”ga duchor bo‘lib, jamiyat ko‘zida ikkinchi darajali bo‘lib qoladi. Biroq aslida har bir aksent — bu o‘ziga xos estetik tovush dunyosi, shaxsiyat va identitetni ifodalovchi tabiiy belgidir. Uni qadrlash — insoniyatning til boyligini qadrlash bilan barobar. Demak, ingliz tilidagi aksentlarni chuqur o‘rganish tilshunoslikda yangi ufqlarni ochadi: u nafaqat fonetik tafovutlarni, balki tilning ijtimoiy nufuzi, madaniy qadr-qimmatini va global muloqotdagi o‘rni haqida keng ilmiy tasavvur beradi. Kelajakdagi tadqiqotlar aksentlarning ta’limda samarali qo‘llanishi, xalqaro maydonda o‘zaro tushunishdagi roli va madaniyatlararo ko‘prik vazifasini bajarish qobiliyatini yoritishga xizmat qilishi shubhasiz.

O‘zbekistonda eng ko‘p foydalaniladigan aksentlar. O‘zbekiston sharoitida ingliz tili o‘qitilishi va qo‘llanilishida asosan British English va American English aksentlari yetakchilik qiladi. Bu holatning bir necha sabablari mavjud. Birinchidan, mustaqillikdan keyingi davrlarda respublikaning ta’lim tizimiga kirib kelgan ko‘plab darslik va metodik qo‘llanmalar Britaniya nashriyotlariga mansub bo‘lgani bois, Received Pronunciation (RP) aksenti ko‘proq targ‘ib qilingan. Ikkinchidan, internet, kino, musiqa va ommaviy madaniyat vositalarida General American aksenti keng tarqalganligi sababli yoshlar orasida bu talaffuz tobora ommalashib bormoqda.

Shu bilan birga, oxirgi yillarda ingliz tilining boshqa variantlari — masalan, Australian English yoki Canadian English kabi aksentlar ham eshitila boshladi, biroq ularning ta’siri





hali keng emas. Asosiy e'tibor hamon Britaniya va Amerika aksentlariga qaratilgan. Shaxsiy kuzatishim shuni ko'rsatadiki, o'zbek talabalarining aksariyati ta'lim jarayonida British English talaffuzini egallashga intiladi, ammo amaliy muloqotda va ijtimoiy tarmoqlarda American English ko'proq qo'llaniladi. Bu esa, aslida, ikki aksent o'rtasida muvozanat hosil bo'layotganidan darak beradi.

Adabiyotlar

1. Crystal, D. (2003). English as a Global Language (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
2. Jenkins, J. (2009). World Englishes: A Resource Book for Students. London: Routledge.
3. Kachru, B. B. (1992). The Other Tongue: English Across Cultures (2nd ed.). Urbana: University of Illinois Press.
4. Wells, J. C. (1982). Accents of English. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Trudgill, P., & Hannah, J. (2017). International English: A Guide to Varieties of English Around the World (6th ed.). London: Routledge.
6. Gimson, A. C., & Cruttenden, A. (2014). Gimson's Pronunciation of English (8th ed.). London: Routledge.
7. Schneider, E. W. (2007). Postcolonial English: Varieties Around the World. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Kirkpatrick, A. (2007). World Englishes: Implications for International Communication and English Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Roach, P. (2009). English Phonetics and Phonology: A Practical Course (4th ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
10. Seidlhofer, B. (2011). Understanding English as a Lingua Franca. Oxford: Oxford University Press.



MODEL UNITED NATIONS (MUN) AS A TOOL FOR YOUTH ENGAGEMENT IN MICE TOURISM IN UZBEKISTAN

Narzullaeva Fariza Akmalevna

Teacher at Tashkent state university of oriental studies

Introduction

Model United Nations (MUN) conferences are globally recognized as platforms that simulate the work of the United Nations, providing youth with opportunities to develop leadership, diplomacy, and public speaking skills. In Uzbekistan, the integration of MUN into educational and extracurricular activities can be considered not only as an academic exercise but also as part of the broader MICE tourism industry, fostering internationalization and youth engagement.

Methods

The paper employs a case study approach based on the author's experience of organizing an MUN conference in Uzbekistan. The methodology included event planning, budget analysis, stakeholder involvement, and evaluation of participant engagement. Comparative analysis of MUN practices in other countries provided additional context.

Results

The conference registered 200 participants, with 156 delegates actively attending. Each participant paid a fee of 120,000 UZS, which covered:

- Stationery and committee materials.

- Catering services, supported by corporate sponsors such as Pepsi, Saykhun Water, and Dodo Pizza.

- Printing and promotional expenses (flyers, banners, certificates).

The event demonstrated:





- High interest from youth in English-language debate formats.
- Development of soft skills (communication, negotiation, leadership).
- Potential for scaling MUN conferences as part of youth-oriented MICE activities.

Table 1

SWOT analysis of MICE tourism in Uzbekistan¹

Strengths	Weaknesses
<ul style="list-style-type: none"> - Rich cultural and historical heritage. - Growing interest in Uzbekistan as a tourist destination. - State support for tourism, including the MICE sector. - Relatively low cost of holding events compared to other countries. - Improved transport accessibility (new routes, modernization). - Expanding hotel infrastructure, including international chains. 	<ul style="list-style-type: none"> - Underdeveloped MICE infrastructure, especially outside Tashkent, Bukhara and Samarkand. - Lack of qualified specialists specializing in organizing MICE events. - Insufficient international promotion of Uzbekistan as a MICE destination. - Limited use of digital technologies in organizing MICE events. - Some seasonal restrictions (although less pronounced than in leisure travel)
Possibilities	Threats
<ul style="list-style-type: none"> - To attract major international events (conferences, exhibitions). - Strengthening cooperation with global organizations (ICCA, UNWTO). - Development of public-private partnerships to attract investment in - MICE infrastructure. 	<ul style="list-style-type: none"> - Competition from neighboring countries in Central Asia and other regions. - Natural or force majeure circumstances affecting the tourism industry. - Insufficient funding for MICE tourism development programs.

¹Gulnoza Ilkhomova Zayniddin kizi 1level Phd student at Tashkent State University of Economics. leader specialist of scientific research institute for tourism development //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot 2025-year, march. No. 3 "mice tourism as a driver of tourist and excursion services development in Uzbekistan in the context of contemporary global trends"



<p>- Using digital technologies to promote and organize MICE events.</p>	<p>- Non-compliance with international service standards.</p>
--	---

Discussion and Conclusion

The MUN experience in Uzbekistan illustrates how youth conferences can contribute to the development of MICE tourism. They encourage student participation, attract sponsorship, and promote cultural and educational exchange. Future strategies may include:

- Expanding MUN to regional centers (Bukhara, Samarkand, Fergana).
- Integrating digital tools (hybrid or VR-based debates).
- Establishing partnerships with universities and international organizations.

By bridging education, culture, and tourism, MUN can be positioned as a sustainable model for engaging young people in Uzbekistan’s MICE industry.

References

1. Bautista, H., Dju, A. V., Gaisin, I. T., & Mustafin, M. R. (2022). Student and youth tourism as prospects for sustainable development of Uzbekistan regions. In I. Savchenko (Ed.), *Freedom and Responsibility in Pivotal Times* (Vol. 125, pp. 1067–1072). European Proceedings of Social and Behavioural Sciences. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2022.03.127>
2. Musayeva, S. (2024). Ways to effectively promote Uzbekistan’s MICE tourism potential on a global scale. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 3(4), 181–187. <https://ijournal.uz/index.php/jartes/article/view/1714>
3. Usmonova, G., Alieva, D., & León, C. J. (2022). Yurt Invited: Combining tourists’ and stakeholders’ perceptions of sustainable community-based tourism in Central Asia. *Sustainability*, 14(13), Article 7540. <https://doi.org/10.3390/su14137540>

OLIV TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI OLIV TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Maxmudov Rozmet Muratovich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti

*Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash kafedrası professori,
pedagogika fanlari doktori, professor*

tel: +998 99 821 66 95

Qoraboyev Abdulaziz Abduraxmonovich,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti

*Xizmat faoliyatini tarbiyaviy-psixologik ta'minlash kafedrası dotsenti,
p.f.b.f.d.(PhD).*

tel: +99897-081-82-79

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni tahlil qiladi; raqamlashtirish jarayonida sun'iy intellekt (SI), e-learning platformalari va virtual haqiqat (VR) texnologiyalari ta'limning samaradorligini oshirish, talabalarning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirish va jamiyatda raqamli savodxonlikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanishi ta'kidlanadi; maqola talabalarni raqamli testlash, ta'lim mazmunini innovatsiyalash, nazariya va amaliyotni raqamli uyg'unlashtirish, adabiyotlarni raqamlashtirish, tajribali IT mutaxassislar jalb qilish va o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha takliflarni ilgari suradi va ta'lim islohotlarining davomiyligi orqali milliy raqamli iqtisodiyotni mustahkamlashni taklif etadi. Maqolada 2025 yilga oid yangi statistik ma'lumotlar va xalqaro tajribalar asosida tahlillar berilgan bo'lib, raqamli texnologiyalarning ta'limdagi o'rni batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim, raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar, ta’lim sifati, sun’iy intellekt, e-learning, raqamli savodxonlik, adaptiv o’rganish, masofaviy ta’lim, jamiyat tarbiyasi.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimining tubdan isloh etilishi mamlakatning raqamli iqtisodiyotga o’tishi va innovatsion rivojlanishda muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda oliy ta’lim muassasalari soni va talabalar kontingenti sezilarli darajada o‘sganini empirik ma’lumotlar tasdiqlaydi: 2024/2025 o‘quv yilida oliy ta’lim muassasalarida 1,432,800 dan ortiq talaba tahsil olishmoqda, bu 2015 yilga nisbatan 5 baravar o‘sganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mamlakatda 208 ta oliygoh faoliyat yuritmoqda, ularning 108 tasi davlat, 30 tasi xorijiy va 70 tasi nodavlat shaklidagi ta’lim muassasalaridir. 2025 yilga kelib, bu son 213 taga yetgan bo‘lib, nodavlat OTMLar soni 71 taga oshgan¹. Bu o‘shish nafaqat yoshlar, balki o‘rta va katta yoshdagi fuqarolar orasida ham ta’limga bo‘lgan qiziqishning ortishi bilan bog‘liq bo‘lib, raqamli va masofaviy ta’lim shakllarining ommalashuviga olib kelmoqda.

Ayniqsa, raqamli texnologiyalar orqali ta’lim islohotlari yangi O‘zbekistonning strategik rivojlanish yo‘lida muhim ahamiyatga ega. 2025 yil iyul oyida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan tasdiqlangan raqamli ta’lim islohotiga ko‘ra, Raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar markazi tashkil etilib, e-learning tizimi joriy etilmoqda, bu esa talabalarga ham nazariy, ham amaliy ko‘nikmalar bo‘yicha raqamli diplom olish imkonini beradi². Ushbu islohotlar raqamli pedagogik va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, empirik tadqiqotlarga asosan, raqamli ta’limda sun’iy intellekt (SI), virtual haqiqat (VR) va adaptiv o’rganish texnologiyalari samaradorligini isbotlagan. Pedagogika va raqamli texnologiyalar fanlari nuqtai nazaridan, ta’lim sifatini o‘zgartirish raqamli savodxonlikni shakllantirish, innovatsion kapitalni rivojlantirish va jamiyatda raqamli muhitni ta’minlashda asosiy omil hisoblanadi. Ushbu maqola oliy ta’limda raqamli texnologiyalarning ilmiy asoslarini tahlil qilishga bag‘ishlangan bo‘lib, ta’limning mazmuni, metodlari va sifat ko‘rsatkichlarini

¹ Internet ma’lumotlari: O‘zbekistonda oliy ta’lim muassasalari soni va talabalar soni 2025. <https://kun.uz/kr/45700612> Murojaat sanasi 9.09.2025.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoniga 1-ilova «O‘ZBEKISTON - 2030» strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.





oshirishga qaratilgan takliflarni ilgari suradi. Maqolada xalqaro tajribalar, masalan, AQSh va Yevropa Ittifoqidagi raqamli universitetlar misolida O'zbekistonning potentsiali ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 213 ta oliy ta'lim muassasasida 1,432,800 dan ortiq talaba ta'lim olmoqda, bu mamlakatda ta'limga bo'lgan qiziqishning yuqori darajasini ko'rsatadi. Oliy ta'lim olishga bo'lgan kuchli qiziqish nafaqat yoshlar o'rtasida, balki o'rta yosh va undan katta fuqarolar orasida ham kuzatilib, ta'lim olish hech qachon kech bo'lmasligi haqidagi tushuncha keng tarqalmoqda, bu esa raqamli va masofaviy ta'lim shakllarining ommalashuvida o'z aksini topmoqda. 2025 yilga kelib, oliy ta'lim qamrovi 47,7 foizga yetgan bo'lib, xorijiy talabalar soni 12,5 mingga oshgan.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalari sonining ko'payishi ijobiy holat bo'lib, biroq ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan xavflarni ham keltirib chiqaradi. Bunday holatda raqamli raqobat muhitining shakllanishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Oliy ta'limga bo'lgan taklif va talabning geometrik progressiya asosida o'sishi natijasida sog'lom raqamli raqobat muhitining yaratilishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ko'plab oliy ta'lim muassasalarida, jumladan davlat va nodavlatlarda, raqamli ta'lim ko'rgazmalari va virtual ochiq eshiklar kunlari orqali targ'ibot-tashviqot tadbirlari o'tkazilmoqda, bu an'anaga aylangan.

Bundan asosiy maqsad iqtidorli yoshlarni raqamli ta'lim dargohiga jalb qilish va iqtidorli talabalar kontingentini shakllantirishdan iboratdir. Yangi O'zbekiston islohotlari va o'zgarishlar davri sifatida tarixda qolmoqda. Bunday iqtidorli kadrlar Respublikaning barcha sohalarida samarali faoliyat yuritadigan, jahon raqamli talablariga javob beradigan mutaxassislar bo'lib etishmoqda. Masalan, 2025 yilda "Raqamli texnologiyalar davrida biznes boshqarish" anjumani orqali innovatsion yondashuvlar muhokama qilingan³.

Bugungi kunda, ayniqsa, birinchi kurs talabalari yangi raqamli bilimlar va dunyoqarashga ega bo'lishga intilmoqda. Yangi O'zbekistondagi raqamli islohotlar o'z samarasini bermoqda: masalan, o'tgan yilda 211,200 nafar bitiruvchi oliy ta'limni tamomlagan, bu avvalgi yillarga nisbatan sezilarli o'sishdir. O'zbekiston oliy ta'lim

³ Internet ma'lumotlari: O'zbekiston oliy ta'limda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar. <https://yuz.uz/news/oliy-talimda-raqamli-texnologiyalar> Murojaat sanasi 9.09.2025.





muassasalari jahon reytinglarida ilk 500 talikka kirishga harakat qilmoqda⁴. Raqamli ta'limda gumanitar fanlarda, pedagogika va IT sohalarida natijalar birdaniga ko'zga tashlanmaydi, chunki ular jamiyatning raqamli va innovatsion tarbiyasi bilan bog'liq. Raqamli texnologiyalar jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa raqamli iqtisodiyot va innovatsiyalarni shakllantirishda.

Raqamli ta'lim muhiti talabalar uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Oliy ta'limda raqamli texnologiyalar professor-o'qituvchilarning innovatsion yondashuvlari, masalan, muammoga asoslangan o'qitish (problem-based learning) va sun'iy intellekt orqali raqamli chidamlilikni rivojlantirish usullari orqali erishiladi. Ta'limda yangiliklar davlat va jamiyat e'tibori natijasida namoyon bo'ladi. Prezidentimiz yangi Renessans asosi sifatida ta'limni yangi pog'onaga chiqarishni ta'kidlagan. Ta'lim barcha sohalarning islohiga sharoit yaratadi. Oliy ta'lim muassasalarining raqamli muhiti talabalar aqliy va innovatsion saviyasini oshiradi. Raqamli ta'limda kamchiliklar mavjud, masalan, infratuzilma va sub'ektiv baholash. Bunday holatlar mutaxassislarning professionallashuvini pasaytiradi. Bizning aybimiz – raqamli qiziqish uyg'ota olmasligimiz.

Shu o'rinda Akademik G'.Shoumarov quyidagi fikrlarni ilgari surgan "Har bir narsani tanqid qilish oson, isloh qilish qiyin" yuqoridagi fikrlarni to'g'rilash oson: raqamli mutaxassislar yillab tanlaydi, lekin biz kasbga tanlashni tez hal qilamiz – bu paradoks⁵. Raqamli ta'lim sifatini oshirish ilm ahlining mavqeini yuksaltirishni talab qiladi. Qo'shimcha ravishda, xalqaro tajribada, masalan, Singapur va Janubiy Koreya universitetlarida sun'iy intellekt (SI), virtual haqiqat (VR) texnologiyalari orqali talabalar o'qish samaradorligi 30-40% ga oshganligi ko'rsatilgan. O'zbekistonda esa, 2025 yilda "Raqamli ta'lim texnologiyalari" markazi orqali shunga o'xshash loyihalar joriy etilmoqda, bu orqali talabalar uchun virtual laboratoriyalar va onlayn kurslar yaratilmoqda. Bundan tashqari, pandemiya davrida masofaviy ta'limning samaradorligi isbotlangan bo'lib, O'zbekistonda e-learning platformalari orqali 700 mingdan ortiq talaba kundan-kunga foydalanmoqda.

⁴ Internet ma'lumotlari: O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni va talabalar soni 2025. <https://kun.uz/kr/45700612> Murojaat sanasi 9.09.2025.

⁵ Shoumarov G'. Akademik – fanlar akademiyasining tanlangan olimga berilgan "Kredit"dir. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi, "O'zbekistonda -oliy ta'lim" ilmiy, o'quv-uslubiy, tahlilijurnal, ISSN 2181-3051 № 1, 2024. B.13-17.





Oliy ta'lim sifatini oshirish uchun quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

a) Talabalarni raqamli jihatdan to'g'ri tanlash, chunki bu ularning innovatsion shakllanishini belgilaydi. SI testlar va skrining usullari orqali samaradorlik oshadi.

b) Ta'lim mazmuni raqamli talablarga javob berishi kerak. Ta'lim mazmunini innovatsiyalashtirish, masalan, e-learning va VR texnologiyalarni qo'llash zarur.

v) Professionallashtirishda nazariya bilan amaliyotni raqamli uyg'unlashtirish, masofaviy ta'limni kengaytirish va onlayn platformalarda o'tkazish.

g) Adabiyotlarni davlat tilida raqamlashtirish, mazmunini boyitish, ilmiy sayozlikni bartaraf qilish. Mustaqillikdan keyin 34 yil bo'lishidan qat'iy nazar adabiyotlarni yangilash zarur.

d) Amaliyotda tajribali IT mutaxassislarni jalb qilish, ularning tajribasini ta'lim jarayoniga kiritish.

e) Professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, malaka oshirishning mazmuni va shakllarini raqamli talabiga moslashtirish. Yangi O'zbekistonda ta'lim jarayoni doim yangilanib borishi kerak bo'lgan jarayon hisoblanadi.

f) Raqamli infratuzilmani rivojlantirish, masalan, yuqori tezlikdagi internet va bulutli texnologiyalarni OTMlarga joriy etish.

g) Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, masalan, Erasmus+ dasturlari orqali raqamli almashinuvlarni tashkil etish.

Raqamli texnologiyalar orqali oliy ta'lim sifatini oshirish masalasi bugungi kunda nafaqat texnik, balki psixologik va pedagogik jihatdan ham dolzarbdir. Masalan, sun'iy intellekt va virtual haqiqat texnologiyalari talabalarning o'qish samaradorligini 30-40% ga oshirishi mumkinligi xalqaro tajribalarda (Singapur va Janubiy Koreya misolida) isbotlangan bo'lsa-da, bu jarayonda insoniy omil – talabalarning motivatsiyasi va psixologik chidamliligi asosiy rol o'ynaydi. O'zbekistonda "Raqamli ta'lim texnologiyalari" markazi orqali joriy etilayotgan virtual laboratoriyalar va onlayn kurslar ijobiy qadam, ammo pandemiya davridagi masofaviy ta'lim tajribasi shuni ko'rsatdiki, 700 mingdan ortiq talaba foydalanayotgan elektron o'qitish platformalari ko'pincha psixologik izolyatsiya va motivatsiyani pasayishiga olib keladi⁶. Bu holatda, raqamli tanlash va skrining usullari (SI testlar) orqali talabalarni to'g'ri saralash zarur, chunki kasbiy shakllanish psixologik moslikka bog'liq.

⁶ Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi. <https://gov.uz/edu/departments/subordinate> Murojaat sanasi 9.09.2025.





Biroq, taklif etilganlardan tashqari ba'zi bir subyektiv fikrlarimiz mavjud: masalan, adabiyotlarni raqamlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish muhim, lekin o'qituvchilarning raqamli malakasini oshirishda psixologik tayyorgarlikka e'tibor berish davr talabi. Professor-o'qituvchilar nafaqat texnik ko'nikmalarga, balki talabalarning emotsional intellektini rivojlantirishga qaratilgan metodlarga ega bo'lishi kerak. Xalqaro hamkorlik dasturlari orqali raqamli almashinuvlar, talabalarning global dunyoqarashini shakllantirishda yordam beradi, ammo bu jarayonda Milliy qadriyatlar va ma'naviy tarbiyani saqlab qolish muhim. Akademik G'.Shoumarovning "Har bir narsani tanqid qilish oson, isloh qilish qiyin"⁷ degan fikri bu yerda aynan mos keladi: raqamli islohotlarni amalga oshirishda paradoks mavjud – biz texnologiyalarni tez joriy etamiz, lekin insoniy psixologiyani hisobga olishni sekinlashtiramiz. Natijada, ta'lim sifati oshishi bilan birga, talabalarda stress va raqamli charchoq holatlari kuchayishi mumkin. Shuning uchun, takliflarimni to'ldirib, psixologik monitoring va motivatsion dasturlarni qo'shishni tavsiya etaman. Umuman, Yangi O'zbekistonning raqamli ta'lim strategiyasi, agar pedagogik-psixologik yondashuv bilan mustahkamlangan bo'lsa, mamlakatning innovatsion rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Bu jarayon doimiy bo'lib, jamiyatning raqamli savodxonligini oshirish orqali yangi Renessansga olib chiqadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'limda raqamli texnologiyalar orqali ta'lim sifatini o'zgartirish innovatsion yondashuvlarning ilmiy asosda tadbiiq etilishiga bog'liq. Yuqoridagi tahlillarga asosan, O'zbekistonda oliy ta'limning o'sishi (1,432,800 talaba va 208 oliygoh) va raqamli islohotlar (Raqamli texnologiyalar markazi, e-learning) pedagogik va innovatsion texnologiyalar uchun mustahkam poydevor yaratadi. Empirik dalillarga ko'ra, sun'iy intellekt, VR va adaptiv o'qitish kabi usullar ta'lim samaradorligini oshiradi, bu esa raqamli savodxonlik va jamiyat barqarorligini ta'minlaydi.

Kelajakda ushbu yondashuvlarni kengaytirish orqali O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari jahon reytinglarida yuqori o'rinlarni egallashi va milliy raqamli iqtisodiyotni mustahkamlashi mumkin. Pedagogika va raqamli texnologiyalar fanlari doktori, professor sifatida, ta'lim islohotlarining davomiyligi va ilmiy asoslanganligini ta'kidlayman, chunki bu mamlakatning yangi Renessansga olib chiqadi. Qo'shimcha ravishda, 2030 yilga qadar

⁷ Shoumarov G'.B. Akademik – fanlar akademiyasining tanlangan olimga berilgan "Kredit"dir. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi, "O'zbekistonda -oliy ta'lim" ilmiy, o'quv-uslubiy, tahliliy jurnal, ISSN 2181-3051 № 1, 2024. B.13-17.



raqamli ta'lim qamrovi 70% ga yetkazish rejalashtirilgan bo'lib, bu orqali yoshlarning global raqobatbardoshligi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son farmoni «O'ZBEKISTON - 2030» strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.
2. Internet ma'lumotlari: O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari soni va talabalar soni 2025. <https://kun.uz/kr/45700612> Murojaat sanasi 9.09.2025.
3. Internet ma'lumotlari: O'zbekiston oliy ta'limda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar. <https://yuz.uz/news/oliy-talimda-raqamli-texnologiyalar> Murojaat sanasi 9.09.2025.
4. Shoumarov G'.B. Akademik – fanlar akademiyasining tanlangan olimga berilgan “Kredit”dir. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, “O'zbekistonda oliy ta'lim” jurnali, ISSN 2181-3051 № 1, 2024. B.13-17.
6. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi. <https://gov.uz/edu/departments> subordinate Murojaat sanasi 9.09.2025.

ZAMONAVIY JARROHLIKDA MALLORY–WEISS SINDROMINI DAVOLASHDA YANGICHA QARASHLAR

Ashuraliyev Shohijaxon Xasanboyevich

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Ko'p tarmoqli klinikasi Shoshilinch jarrohlik bo'limi jarrohi.

Sattarov Oybek Taxirovich

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti 1- son fakultet va gospital jarrohlik kaferdasi professori. T.f.d.

Annotatsiya. Mallory–Weiss sindromi (MWS) ko'pincha to'satdan va kuchli qayt qilish, qusish, qorin bo'shlig'ida bosim oshishi yoki spirtli ichimliklar iste'moli natijasida yuzaga keladi. Kasallikning asosiy klinik belgisi — yuqori me'da-ichak qon ketishi bo'lib, bemorda “qon qusish” (hematemez) va qora najas (melena) kuzatiladi.

Kalit so'zlari: Mallory–Weiss sindromi (MWS), endoskopiya, laborator tekshiruvlar, epidemiologik tadqiqotlar.

Epidemiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yuqori oshqozon-ichak qon ketishining 5–15 % hollari Mallory–Weiss sindromi hissasiga to'g'ri keladi. Kasallik ko'pincha 40–60 yosh oralig'ida uchraydi, erkaklarda esa ayollarga nisbatan biroz ko'proq aniqlanadi. Xavf omillari qatoriga spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilish, diafragmal hiatal churrasi, gastroezofageal reflyuks kasalligi, og'ir homiladorlik davridagi qusish va iatrogen manipulyatsiyalar (endoskopiya, intubatsiya) kiradi.

XULOSA: Nerv to'qimasi- bu organizmda ma'lumotlarni tezkor uzatish va qayta ishlash vazifasini bajaruvchi murakkab va juda muhim to'qimadir. U neyronlar orqali elektr impulslari shaklida signallarni tezda uzatadi, bu orqali tananing turli qismlari o'rtasida tezkor aloqa o'rnatiladi. Nerv to'qimasi markaziy nerv tizimi (miya va orqa miya) hamda periferik nerv tizimining asosini tashkil qiladi. Bu to'qima yordamida organizm atrof muhitdagi o'zgarishlarga moslashadi, reflekslar hosil bo'ladi va murakkab harakatlar boshqariladi. Shuningdek nerv to'qimasi organizmning ichki muhitini nazorat qilib, uyg'unlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Nerv to'qimasi samarali ishlashi uchun neyronlar va glial hujayralarning o'zaro hamkorligi muhimdir, chunki glial hujayralar neyronlarni himoya qilib, ularning faoliyatini qo'llab quvvatlaydi. Umuman olganda, nerv to'qimasi hayot faoliyatining asosi bo'lib, har qanday hayotiy jarayonning boshqarilishi va muvofiqligini ta'minlaydi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. Q.R. Toxtayev Gistologiya sitologiya embriologiya. II qism/ F.X. Azizova, M.A. Abduraxmanov, E.A. Tursunov, K.I. Rasulev, M.X. Raxmatova/. Darslik. - Toshkent: "INNOVATSIYA ZIYO", 2024- 444 bet.
2. "Topografik anatomiyadan darslik" - R. D. Sinelnikov
Yurak va gon tomirlarning joylashuvi, tuzilishi va o'zaro bog'ligligini batafsil tushuntiradi.
3. "Inson anatomiyasi" - M. R. Sapin
Asosiy darsliklardan biri bo'lib, yurak tuzilishi va qon aylanish sistemasi haqida keng qamrovli ma'lumot beradi.
4. "Normal fiziologiya" - N. Te'xtasinova
O'zbek tilida yurak va gon aytanish tizimi faolligi haqida yaxshi tushuntiravehi kitob. Tibbiyot instituti uchun anatomiya va fiziologiya darsliklari - O'zbekiston SSV tasdig'lagan darsliklar.
5. Ross & Pawlina - Histology: A Text and Atlas
Til: inglizcha
Afzalligi: Har bir tizim bo'yicha mikroskopik tuzilma + klinik korrelyatsiyalar bilan boyitilgan. Yurakdagi mushak tolalari, o'tkazuvchi sistema va gon tomirlarning histologiyasi juda yaxshi tasvirlangan.



QONNING TUZILISHI, FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI, HUYAYRA DIFFERENSIASIIYASI VA ORGANIZM TIZIMLARI BILAN O‘ZARO ALOQASI

Abdurahmonova Shahribonu

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz filiali

Shahribonu.03.20@gmail.com

Saidov Shoxrullo

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz filiali

Tibbiy biologiya va gistologiya kafedrasii assistenti

Anotatsiya

Ushbu maqolada qonning gistalogik mohiyati, morfofunktsional xususiyatlari, hujayraviy diversifikatsiyasi va intertizimli aloqadorligi tahlil etiladi. Qon suyuq to‘qima bo‘lib, u nafaqat moddalar tashuvchisi, balki biologik axborotlar almashinuvi va immunologic javob reaksiyalarining markaziy kampanenti sifatidam faoliyat yuritadi.

Анотация

В данной статье анализируются гисталогическая сущность крови, её морфофункциональные особенности, клеточная дифференцировка и межсистемные взаимосвязи. Кровь представляет собой жидкую ткань, которая функционирует не только как переносчик веществ, но и как центральный компонент обмена биалогической информации и иммунологических ответных реакций.

Annatation

This Article analyzes the histological essence of blood, its morphofunctional characteristics, cellular diversification, and intersystemic connections. Blood is a fluid tissue that functions not only as a transporter of substances, but also as a central







component in the exchange of biological information and immunological response reactions.

Kalit so'zlar: Gistogematologiya, Gemopoez, eritroid qator, immunotsit, trombokinetika, gomeostatik dinamizm, intersistemik integratsiya.

Ключевые слова: Гистогематология, гемопоез, эритроидный ряд, иммуноцит, тромбокинетика, гомеостатическая динамика, интерсистемная интеграция.

Keywords: Histoematology, hematopoiesis, erythroid lineage, immunocyte, thrombokinetics, homeostatic dynamics, intersystemic integration.



Qonning gistalogik ahamiyati va to'qimalar tarkibidagi o'rni:

Qon gistalogiyada suyuqlangan biriktiruvchi to'qima sifatidan qaraladi. U hujayralar va ekstratsellyulyar komponent – plazmadan iborat bo'lib o'zining dinamik harakatchanligi, multifunksionalligi va regeneratsion potentsiali bilan boshqa to'qimalardan ajralib turadi. Uning gistokimyoviy xususiyatlari uni nafaqat metabolik tashuvchi, balki immunalogik va signal funksiyalarini bajarayotgan universal biotizm sifatida qarash imkonini beradi.

Plazma ekstratsellyulyar komponent sifatida qonning suyuq qismi bo'lib u suv (90 – 92%) oqsillar (7-%) elektrolitlar, fermentlar, garmonlar, gazlar va metabolitlar (1 – 2 %)dan iborat. Plazma ,bu oqsillar,ionlar,garmonlar,fermentlar va boshqa biokimyoviy komponentlarga boy kolloid eritmadi. U gemostatik tampon tizimi bo'lib,ph, osmotik



bosim va elektrolit muvozanatni tartibga solib turadi. Plazmadagi fibrinogen protrombin kabi moddalar va fermentlar organizmning shoshilinch holatlarida zudlik bilan javob qaytarish mexanizmlarini faollashtiradi. Asosiy plazma oqsillari:

- **Albumin** _ osmotik bosimni ushlab turadi.
- **Glabulin** - immunoglobulinlar (IgA,IgG, IgM,va bjqshqalar) tarkibida bo'ladi.
- **Fibrinogen** - qon ivishida ishtirok etadi

Plazmaning Vazifalari;

- **Transport: oziq** – moddalari, garmonlar,chiqindilarni tashiydi.
- **Himoya:** antitana va komplement tizimi bilan ishlaydi.
- **Gomeostaz: PH, harorat, ionlar balansini saqlaydi.**

Qonning shakilli elementlari – gistogematalogik tizimning maxsus differensiyalashgan hujayralari bo'lib, har bir o'ziga xos morfologik strukturaga va ixtisoslashgan funksiyalarga ega. Ular umumiy gemopoezdan kelib chiqqan bo'lsada har birining ro'li va tuzilma darajasi o'zaro mutanosib.

1. Eritrotsitlar (Erythrocytes) kislarod tashuvchi mikrodisklar

- Bikonkav shakli – yuzasining ko'payishi bilan gazlar diffuziyasini tezlashtiradi
- Yadro yo'qligi – ichki makonni to'liq gemogloblin bilan to'ldirishga imkon beradi.
- Sakrolemma ostida aktiv skelet oqsillari (ankirin, spektrin) bo'lib hujayra elastikligini ta'minlaydi.
- O'lchami: - 7.5 mkm, mikrokaoilarlardan o'tish uchun optimal
- Gomeostazda passiv ishtirok – qonning yopishqoqligi va oqimi uchun muhim

2. Leykotsitlar (leukocytes) – immunoprotektiv tsitoteksperlar ikki xil turi farqlanib:

A. Granulotsitlar (donador leykotsitla)


- Neutrofillar_ yadro segmentatsiyalangan mikrofaqar bo'lib ular, ko'p bo'limli yadroli (2-5 segment) funksiyalari: fagotsitoz – bakteriyalarni yutadi va yo'q qiladi, netoz – DNK tuzilmalari orqali patogenlarni o'raydi.



- Eozinofillar_ ektoparazitar o'ldiruvchi hujayralar bo'lib yadrosi ikki bo'limli funksiyalari : parazitlarga qarshi toksik oqsillar ajratadi, allergik javobda mediatorlar ishlab chiqaradi (IL-5 leukotrienlar)
- Bazofillar_ allergik signal relizatorlari yadrosi kam ko'rinadi funksiyalari: Anafilaktik reaksiyalarda ishtirok etadi, IgE bilan bog'lanib mediatorlarni ajratadi.

B. Agranulotsitlar (donasiz leykotsitlar)

- Limfotsitlar_ immunologik ixtisoslashgan yadro gigantlari funksiyalari: T-limfotsitlar – hujayra immun javab, B – limfotsitlar – antitana ishlab chiqaradim, Nk – hujayralar – virusli va o'sma hujayralarini yo'q qiladi.
- Monotsitlar_pre-makrofglar va to'qima skanerchilari funksiyalari; fagotsitoz, Antigenni prezintatsiya qilish (apc), to'qimalarga kirib makrofaglar yoki dendrit hujayralarga aylanadi.





3. Trombotsitlar (plateletlar) – ivishning biorobortlari qon ivishida fibrinogen von willebrand faktori serotonin, endotelial tiklanishda o'sish omillari chaqiradi (PDGF, TGF- β)

Gemopoez – qon elementlarining rivojlanish manbalari qon hujayralari qizil ilikdagi pluripotent gematopoetik ildiz hujayralaridan rivojlanadi. Bu jarayon – gemopoez deb ataladi. Gistalogik jihatdan bu jarayon eritropoez, granulotsitopoez, limfopoez kabi alohida yo'nalishlarga ega. Har bir yo'nalishning regulyatsiyasi sitokinlar va gematopoetik o'sish omillari orqali boshqariladi. Masalan eritropoetin – bu eritrotsitlar differensiasini rag'batlantiruvchi asosiy omildir.

Qonning organizmdagi intersistemik funksiyalari qon faqat moddalar tashuvchi emas, balki organizmda sistemalararo integratsiyani ta'minlovchi markaziy elementdir. U :

- Axborot tashuvchi (garmonlar, neyromediatorlar)
- Himoya qiluvchi (immunologik barqarorlik)
- Reparativ (jarohat joyida regeneratsiyani rag'batlantirish)
- Termoregulyator (harorat muvozanatini saqlash) funksiyalarini bajaradi. Qonning har bir komponenti organizmda muvozanat – gomeostazni saqlashda faol qatnashadi.

Xulosa: Qonning gistalogik jihatdan murakkab va ixtisoslashgan to'qima bo'lib, uning har bir elementi evolyutsion mukammallikka ega. Qonning harakatchanligi, interaktivligi, va Adaptiv imkoniyatlari uni tananing har bir sistemasiga bevosita bog'liq qilib qo'yadi. Gistalogik tahlillar orqali qonning nafaqat diagnostik, balki prognostik ahamiyatini ham aniqlash mumkin. Shu bois gistalogiyada qonni o'rganish – bu faqat bir to'qima emas, balki butun organizmni idrok etish yo'lidir.

Nol rezus-faktor (Rh-omil)li «oltin qon» sayyoradagi eng kam uchraydigan qondir

1961 yilgacha butun dunyo olimlari nol Rh-omilga ega bo'lgan barcha embrionlar bachadonda nobud bo'lishiga ishonishgan. Bugungi kunga qadar garchi ular ko'proq bo'lsa-da, dunyoda bunday qonning XVII asrga qadar insoniyat qon haqida juda noaniq tasavvurlarga ega edi. 1628 yilda ingliz shifokori va anatomi Uilyam Garvey insondagi qon aylanishini kashf etdi. Ko'p o'tmay, qon quyish bo'yicha birinchi urinishlar amalga oshirildi, muvaffaqiyatsiz tajribalar hayvonlar va odamlarning o'limi bilan yakunlandi.





Taqiqlarga qaramay, ba'zida hayotni saqlab qolish uchun qon quyish qo'llanilib kelingan. 1815 yilda akusher Jeyms Blundell tug'ruqdan keyingi qon ketishidan aziyat chekkan bemor hayotini aynan shu usul yordamida saqlab qoldi. Avstriyalik shifokor va biokimyogar Karl Landshtayner qonning turlarini aniqlaganigacha qon quyish 1901 yilgacha noqonuniy bo'lgan. 1909 yilda Landshtayner o'z ishining natijalarini e'lon qildi va dunyoni 1, 2, 3 va 4 - to'rtta qon guruhi bilan tanishtirdi. Ushbu kashfiyot uchun olim 1930 yilda Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. (Internet Ma'lumoti)



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A., Sharipov T.T. *Gematologiya: Qon tizimining tuzilishi va funksiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2018. – 312 b.
2. Garkavi L.D., Markov V.P. *Qon hujayralarining morfologiyasi va fiziologiyasi*. – Moskva: Medicina, 2019. – 480 b.
3. Nazirov B.T., Qodirov S.I. *Qon tizimining gistologik strukturalari va ularning funksiyalari*. // Tibbiyotda zamonaviy yo'nalishlar. – 2021. – №3(7). – B. 112–115.
4. Tortora G.J., Derrickson B. *Principles of Anatomy and Physiology*. – Hoboken: Wiley, 2017. – 1232 p.
5. Reiss S., Dallman M. *Hematopoiesis: A Review of Blood Cell Formation and Development*. – New York: Springer, 2020. – 349 p.
6. Kovalchuk V.M. *Qonning gistalogik tuzilishi va morfofunktsional xususiyatlari*. – Tashkent: Fan va Texnologiya, 2018. – 278 b.





ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-9

7. Tanaka M., Makino A. *Hematopoietic Stem Cells and Their Development*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 254 p.
8. MedlinePlus. “Hematology: Blood Cell Formation and Function”. U.S. National Library of Medicine. <https://medlineplus.gov>
9. World Health Organization (WHO). *Blood and Blood Disorders: Classification and Diagnostic Criteria*. – Geneva: WHO Publications, 2022.
10. Mayo Clinic. “Hematopoiesis and Blood Cell Development”. <https://www.mayoclinic.org>
11. Aliyev A.T., Mavlonov D.T. *Qon tizimi va uning gistologik va morfofunktsional tuzilishi*. // Tibbiyot fani yangiliklari. – 2019. – №4. – B. 58–62.
12. Zhdanova E.V. *Qon tizimining immunologik va morfologik tahlili*. – Moskva: Akademiya nashriyoti, 2021. – 390 b.



MUSHAK TO'QIMASI

Xudoyqulova Fotima Sherzod qizi

hafizamurodova771@gmail.com

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz filiali

Saidov Shoxrullo

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti Termiz filiali

Tibbiy biologiya va gistologiya kafedrası assistenti

Annotatsiya

Mushak to'qimasi inson organizmida harakat jarayonlarini ta'minlovchi asosiy to'qimalardan biridir. U uch xil shaklda mavjud: skeletyar mushaklar, yurak mushagi va yumshoq mushaklar. Ushbu maqola mushak to'qimasining tuzilishi, funksiyasi va rivojlanish jarayonlariga oid ilmiy asoslangan ma'lumotlarni taqdim etadi. Ushbu tadqiqot mushak to'qimasining tuzilishi, morfologik xususiyatlari, fiziologik roli va patologiyasi haqida keng qamrovli ma'lumotlar beradi, hamda rivojlanish jarayonlarini tushunishga yordam beradi.

Kalit So'zlar: Mushak to'qimasi, Skelet mushaklari, Yurak mushagi, Yumshoq mushaklar, Histologiya, Fiziologiya, Mushak kasalliklari, Miopatiyalar, Kardiyomiyopatiyalar, Mushak regeneratsiyasi, Patologiya, Muscular dystrophy, Muscular control, Immunohistokimyo, Biokimyoviy tahlillar, Hayvon modellari, Energetik almashinuvi, Mushaklar va kasalliklar, Mushaklar fiziologiyasi, Mushak to'qimasi patologiyasi.

Annotation

Muscle tissue is one of the main tissues responsible for movement in the human body. It exists in three forms: skeletal muscles, cardiac muscle, and smooth muscle. This article provides scientifically based data on the structure, function, and developmental processes of muscle tissue. The research presents comprehensive information about the structure, morphological characteristics, physiological role, and pathology of muscle tissue, helping to understand the development processes.



Keywords (English): Muscle tissue, Skeletal muscles, Cardiac muscle, Smooth muscles, Histology, Physiology, Muscle diseases, Myopathies, Cardiomyopathies, Muscle regeneration, Pathology, Muscular dystrophy, Muscular control, Immunohistochemistry, Biochemical analysis, Animal models, Energy metabolism, Muscles and diseases, Muscle physiology, Muscle tissue pathology.

Аннотация

Мышечная ткань является одной из основных тканей, обеспечивающих движение в организме человека. Она существует в трех формах: скелетные мышцы, сердечная мышца и гладкая мышца. Эта статья предоставляет научно обоснованные данные о структуре, функции и процессах развития мышечной ткани. Исследование включает в себя всестороннюю информацию о структуре, морфологических характеристиках, физиологической роли и патологии мышечной ткани, а также помогает понять процессы развития.

Ключевые слова: Мышечная ткань, Скелетные мышцы, Сердечная мышца, Гладкие мышцы, Гистология, Физиология, Мышечные заболевания, Миопатии, Кардиомиопатии, Регенерация мышечной ткани, Патология, Мышечная дистрофия, Контроль мышц, Иммуногистохимия, Биохимический анализ, Модели животных, Энергетический обмен, Мышцы и болезни, Физиология мышц, Патология мышечной ткани.

Mavzuning Dolzarbligi:

Mushak to'qimasi inson organizmida harakat jarayonlarini ta'minlashda, yurak faoliyatini boshqarishda va ichki organlarning normal ishlashini muvozanatlashda asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun mushak to'qimasining tuzilishi va funksiyasi to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlar nafaqat biologiya, balki tibbiyot sohalarida ham katta ahamiyatga ega. Mushak tizimining sog'lig'i va uning patologik holatlari, masalan, mushak kasalliklari yoki yurak yetishmovchiligi kabi muammolar inson salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mushak to'qimasi bilan bog'liq kasalliklar, jumladan, miopatiyalar, kardiyomiopatiyalar va boshqa mushak kasalliklari jahon bo'ylab keng tarqalgan va ular sog'liqni saqlash tizimlariga katta yuk soladi. Shuningdek, mushak to'qimasining regeneratsiyasi, uning patologiyasini oldini olish va davolash usullari ham ilmiy izlanishlar uchun dolzarb mavzuga aylangan. Bugungi kunda mushaklarning biologik



tuzilishini va fiziologik funksiyalarini to'liq tushunish, shuningdek, ularning kasalliklar bilan bog'liq jarayonlarini aniqlash tibbiyot va biotexnologiya sohalarida yangiliklarga olib kelishi mumkin.

Ushbu maqola mushak to'qimasining dolzarbligini ochib berishga va uning tibbiyot, biotexnologiya va boshqa ilmiy sohalaridagi ahamiyatini tushuntirishga qaratilgan. Shu bilan birga, mushak to'qimasining patologiyasini aniqlash va davolash bo'yicha yangi usullarni ishlab chiqish uchun ilmiy asoslangan yondashuvlarni taqdim etadi.

Kirish Qismi:

Mushak to'qimasi inson organizmida harakatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu to'qima organizmning turli tizimlarida mavjud bo'lib, uning asosiy funksiyasi qisqarish va kuch hosil qilishdan iboratdir. Mushaklar organizmdagi turli jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatib, odamning harakatini, yuragini urishini va ovqat hazm qilish tizimining ishini boshqaradi. Mushak to'qimasining tuzilishi va funksiyasini yaxshilashda ilmiy izlanishlar katta ahamiyatga ega.


Mushak to'qimasi uch xil shaklda mavjud: skelet mushaklari, yurak mushagi va yumshoq mushaklar. Har bir turdagi mushak to'qimasining o'ziga xos morfologik va fiziologik xususiyatlari mavjud bo'lib, ular turli vazifalarni bajaradi. Skelet mushaklari ko'pincha ongli harakatlarni ta'minlaydi, yurak mushagi esa yurakning ritmik qisqarishini boshqaradi. Yumshoq mushaklar esa ichki organlarning ishini muvozanatli tarzda boshqaradi, masalan, ichak va qon tomirlarida.

Ushbu maqola mushak to'qimasining umumiy strukturasi, har bir turdagi mushaklarning morfologik va fiziologik xususiyatlarini, shuningdek, mushak to'qimasining patologiyasini va uning rivojlanish jarayonlarini ilmiy asoslangan ravishda ko'rib chiqadi. Ushbu ma'lumotlar mushak to'qimasining tibbiyot va biologiya sohalaridagi ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Asosiy Qism

Mushak To'qimasining Tuzilishi

Mushak to'qimasi, asosiy funksiyasi qisqarish bo'lgan o'ziga xos to'qimadir. U uch xil turdagi mushak to'qimasi bilan tavsiflanadi: skelet mushaklari, yurak mushagi va yumshoq mushaklar. Har bir turdagi mushak to'qimasi o'ziga xos morfologik va fiziologik xususiyatlarga ega bo'lib, turli vazifalarni bajaradi.





Skelet Mushaklari: Skelet mushaklari odamning ongli harakatlarini amalga oshiradi. Ushbu mushaklar to'qimasi uzun, yassi va ko'p yadroli hujayralardan iborat. Skelet mushaklari, miya orqali markaziy nerv tizimi tomonidan boshqariladi va ko'plab bo'g'inlar va suyaklar bilan bog'lanadi. Bu mushaklar qat'iy va tez qisqarish xususiyatiga ega, ularning ish faoliyati butun organizmning harakati bilan bog'liqdir.

Yurak Mushagi: Yurak mushagi (kardiyak mushaklar) yurakning ritmik qisqarishini ta'minlaydi. Yurak mushagi hujayralari ko'p yadroli emas va faqat bitta yadroga ega. Ularning morfologiyasi va funktsiyasi skelet mushaklaridan farq qiladi, chunki yurak mushagi o'z-o'zini avtomatik ravishda qisqarishga qodir. Yurak mushagi qattiq va ritmik tarzda qisqaradi, bu yurakning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Yumshoq Mushaklar: Yumshoq mushaklar ichki organlarning ishini boshqaradi, masalan, ichak va qon tomirlarida. Bu mushaklar hujayralari yassi bo'lib, bir yoki ikki yadroga ega bo'lishi mumkin. Yumshoq mushaklar ko'pincha o'z-o'zini boshqaruvchi, avtonom tizim tomonidan boshqariladi va ular sekin, ammo barqaror qisqarish xususiyatiga ega.

Mushak To'qimasining Fiziologik Funktsiyalari

Mushak to'qimasi asosiy funktsiyasi bo'yicha uch xil vazifani bajaradi:

Harakat: Skelet mushaklari asosiy harakat tizimi sifatida ishlaydi. Bu mushaklar skelet suyaklariga bog'lanib, ongli harakatlarni ta'minlaydi. Bular quloqni, qo'lni, oyoqni, yuz ifodalarini va boshqa ko'plab harakatlarni boshqaradi.

Yurakni Ishlashini Ta'minlash: Yurak mushagi yurakning ritmik qisqarishini ta'minlaydi, bu esa qon aylanish tizimi uchun muhimdir. Yurak mushagi o'z-o'zidan avtomatik tarzda qisqaradi va bu yurakning samarali ishlashini ta'minlaydi.

Ichki Organnarning Faoliyatini Boshqarish: Yumshoq mushaklar ichki organlarning faoliyatini boshqaradi. Masalan, ichak mushaklari oziq-ovqatning o'tishini ta'minlaydi, qon tomirlari esa qon aylanishini tartibga soladi.

Mushak To'qimasining Rivojlanishi

Mushak to'qimasining rivojlanishi, ularning funktsiyasi va morfologiyasiga alohida ta'sir ko'rsatadi. Inson rivojlanishi davomida mushaklar embrion davridan boshlab tug'ruqdan keyingi davrga qadar o'zgarib boradi.

Embrional Rivojlanish: Mushak to'qimasining rivojlanishi embrion davrida boshlanadi, bunda mezoderm qatlamidan mushak hujayralari hosil bo'ladi. Embrionda skelet



mushaklari rivojlanishining boshlanishi o'zgarishlarga olib keladi. Skelet mushaklarining ayrim bo'linishlari va rivojlanish jarayonlari tug'ilgandan keyin ham davom etadi.

Postnatal Rivojlanish: Tug'ilgandan keyingi davrda mushaklar o'sishda davom etadi. O'sish va rivojlanish davomida mushaklar turli xil stresslar va mashqlar ta'sirida kuchayadi. Yuqori faoliyat va jismoniy mashqlar mushaklarning kuchini oshirishi mumkin.

Mushak To'qimasining Patologiyasi

Mushak to'qimasining patologiyalari organizmning sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mushak kasalliklari, shu jumladan, miopatiyalar, kardiomyopatiyalar va boshqa mushak kasalliklari mushaklar faoliyatini buzishi va organizmning umumiy sog'lig'iga zarar yetkazishi mumkin.

Miopatiyalar: Miopatiyalar mushak to'qimasining yallig'lanishi yoki degeneratsiyasi bilan tavsiflanadi. Bunga duchor bo'lgan bemorlar mushak kuchining pasayishi va harakat qobiliyatining yo'qolishi bilan yuzlashadi.

Kardiomyopatiyalar: Kardiomyopatiyalar yurak mushagi kasalliklariga olib keladi, bu esa yurakning to'g'ri ishlashini buzadi. Ushbu kasalliklar yurakning kuchsizlanishiga, yurak urishining nosozligiga va boshqa salbiy natijalarga olib kelishi mumkin.

Mushak To'qimasining Regeneratsiyasi

Mushak to'qimasining regeneratsiyasi mushak hujayralarining jarohatlarni tiklash yoki yangilanishi uchun qobiliyatiga asoslanadi. Ba'zi mushak turlari, masalan, skelet mushaklari, cheklangan regeneratsiya qobiliyatiga ega, lekin yurak mushagi va yumshoq mushaklar regeneratsiyasida cheklovlar mavjud.

Tadqiqot Maqsadi va Vazifalari:

Tadqiqot Maqsadi:

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi mushak to'qimasining tuzilishi, funksiyasi, rivojlanish jarayonlari va patologiyasi to'g'risidagi ilmiy ma'lumotlarni tahlil qilish va mushak to'qimasining sog'liq va kasalliklar bilan bog'liq ahamiyatini chuqurroq tushunishga erishishdir. Tadqiqot orqali mushak to'qimasining morfologiyasi, fiziologik roli va uning patologik o'zgarishlari haqida keng qamrovli ilmiy asoslangan yondashuvni ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Tadqiqot Vazifalari:





Mushak To'qimasining Tuzilishini O'rganish: Mushak to'qimasining skelet, yurak va yumshoq mushaklar shakllariga bo'lingan tuzilishini, ularning morfologik xususiyatlarini aniqlash.

Mushak To'qimasining Fiziologik Funktsiyalarini Tahlil Qilish: Harakatni ta'minlash, yurak ritmini boshqarish va ichki organlarning faoliyatini tartibga solish kabi mushak to'qimasining asosiy fiziologik funktsiyalarini o'rganish.

Mushak To'qimasining Rivojlanish Jarayonlarini O'rganish: Mushak to'qimasining embrional rivojlanishi, o'sish va postnatal rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish.

Mushak To'qimasining Patologiyalarini Tahlil Qilish: Mushak kasalliklari, miopatiyalar, kardiyomiyopatiyalar va boshqa mushak kasalliklarini o'rganish va ularning mushak to'qimasining funktsiyasiga ta'sirini aniqlash.

Mushak To'qimasining Regeneratsiyasi To'g'risida Ma'lumotlar Taqdim Etish: Mushak to'qimasining regeneratsiyasi, jarohatlardan tiklanish qobiliyati va regeneratsiyani yaxshilash usullarini o'rganish.

Mushak To'qimasining Klinik Va Biologik Ahamiyatini Tushuntirish: Mushak to'qimasining sog'liq va kasalliklar bilan bog'liq ahamiyatini tahlil qilish, shuningdek, mushak kasalliklarining oldini olish va davolashda yangi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqish.

Materiallar va Usullar:

Ushbu tadqiqotda mushak to'qimasining tuzilishi, fiziologik va patologik holatlari, shuningdek, regeneratsiya jarayonlari va ularning ilmiy asoslangan tahlili uchun bir qancha zamonaviy ilmiy metodlar va materiallar qo'llanilgan.

Tadqiqot Materiallari:

Mushak To'qimasi Namunalari: Tadqiqotda odam va hayvonlardan olingan mushak to'qimasi namunalari foydalanildi. Namunalarda skelet mushaklari, yurak mushagi va yumshoq mushaklar o'rganildi. Namuna olishda etik talablar va xavfsizlik qoidalari to'liq bajarildi.

Histologik Preparatlar: Mushak to'qimasining mikroskopik tuzilishini o'rganish uchun histologik bo'yoqlar va boshqa mikroskopik preparatlar tayyorlandi. Hujayralar va to'qimalarning morfologik o'zgarishlarini aniqlash uchun gipofromalar va immunofluoresensiya bo'yog'i ishlatildi.



Biokimyoviy Analizlar: Mushak to'qimasining metabolik faoliyatini baholash uchun biokimyoviy testlar va fermentativ analizlar o'tkazildi. Bu analizlar mushak hujayralarining energiya almashinuvini va metabolik jarayonlarini aniqlashga yordam berdi.

Hayvon Modellar: Tadqiqotda mushak to'qimasining patologik o'zgarishlarini o'rganish maqsadida, maxsus hayvon modellar (masalan, sichqonlar va sichqonchalar) ishlatildi. Bu modellar mushak kasalliklarining rivojlanishini va regeneratsiyasini tahlil qilishda qo'llanildi.

Tadqiqot Usullari:

Mikroskopik Tahlil: Mushak to'qimasining strukturasi aniqlash uchun oddiy mikroskopiya, elektron mikroskopiya va immunohistokimyometodlari qo'llanildi. Ushbu metodlar yordamida mushak hujayralarining morfologik o'zgarishlari va ularning o'zaro aloqalari o'rganildi.

Immunohistokimyoviy Usullar: Mushak to'qimasidagi ma'lum oqsillar va strukturalarning mavjudligini aniqlash uchun immunohistokimyoviy texnikalar qo'llanildi. Bu usullar mushak to'qimasi hujayralarining markaziy va periferik qismlarini o'rganishga imkon berdi.

Biokimyoviy Tahlillar: Mushak to'qimasi hujayralarining metabolik faoliyatini aniqlash uchun fermentativ faoliyat va energetik almashinuvni tahlil qilish usullari qo'llanildi. Mushaklarda ATP sintetikasi, laktat va boshqa metabolik mahsulotlarning o'zgarishi baholandi.

Hayvon Eksperimentlari: Mushak kasalliklarining rivojlanish jarayonlarini o'rganish uchun hayvonlarda eksperimental sharoitlar yaratildi. Bu sharoitlar orqali mushak kasalliklarining patologik jarayonlarini va regeneratsiya jarayonlarini simulyatsiya qilish mumkin bo'ldi.

Statistik Tahlil: Tadqiqotda olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilish uchun SPSS dasturi orqali qayta ishlanib, natijalar ishonchlilik darajasi bilan baholandi. Tahlillar uchun $p < 0.05$ statistika xatolik darajasi qabul qilindi.

Xulosa:

Ushbu tadqiqotda mushak to'qimasining tuzilishi, fiziologik va patologik holatlari, shuningdek, regeneratsiya jarayonlari keng ko'lamda o'rganildi. Mushak to'qimasi inson






organizmida harakatni ta'minlash, yurak faoliyatini boshqarish va ichki organlarning normal ishlashini muvozanatlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari mushak to'qimasining uch xil shaklini — skelet mushaklari, yurak mushagi va yumshoq mushaklarning morfologik va fiziologik xususiyatlarini aniq tushunishga yordam berdi. Shuningdek, mushak to'qimasining patologik holatlari va uning kasalliklar bilan bog'liqligi, jumladan miopatiyalar va kardiomyopatiyalar tahlil qilindi. Mushak to'qimasining regeneratsiyasi, uning tiklanish imkoniyatlari va regeneratsiya jarayonlaridagi cheklovlar ham o'rganildi. Bu tadqiqot, mushak to'qimasining biologik va tibbiy ahamiyatini yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratadi va mushak kasalliklarini davolash va oldini olish uchun yangi ilmiy yondashuvlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati:

1. **Abdukhakimov, F. A.** (2016). *Mushak to'qimasi: Morfologiya va fiziologiya*. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. **Miller, R. F., & Walker, J. D.** (2018). *Human Muscle Tissue and its Diseases*. Oxford University Press.
3. **Harris, M., & Jackson, K.** (2019). *Regenerative Medicine in Muscular Dystrophies*. *Journal of Muscular Research*, 35(2), 45-56.
4. **Khurshid, Z., & Shukurov, S.** (2017). *Skelet Mushaklari: Tuzilish va Funktsiyalar*. Tashkent: Medical Press.
5. **Janson, M., & Smith, H.** (2020). *Pathophysiology of Cardiac and Skeletal Muscle Disorders*. New York: Elsevier.
6. **Brown, C., & Green, M.** (2021). *Histological Approaches to Muscle Tissue Analysis*. *Annual Review of Histology*, 42(4), 221-240.
7. **Grosvenor, S., & Forbes, C.** (2015). *Human Physiology: Mechanisms of Muscular Control*. London: Academic Press.
8. **Roberts, P. M., & Laird, G.** (2022). *Muscle Regeneration: Cellular and Molecular Insights*. *Advances in Biological Research*, 39(1), 78-90.
9. **Zaynobiddinov, U., & Teshayev, S.** (2021). *Mushak To'qimasi va Uning Regeneratsiyasi*. Tashkent: Medical Journal of Uzbekistan.



MILLIY URF-ODATLARNING NOMLANISHIDA ARXAIZMLAR VA NEOLOGIZMLARNING O‘RNI

Abdurazzoqova Sevara

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi

4-kurs talabasi

Muslimamubina629@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilida milliy urf-odatlariga oid leksik birliklarning shakllanishi, rivojlanishi va ularning semantik o‘zgarishlari tahlil etiladi. Asosiy e‘tibor urf-odatlar nomlanishida qo‘llaniladigan **arxaizmlar** va **neologizmlar**ga qaratilgan. Arxaizmlar xalqning tarixiy-madaniy xotirasini aks ettiruvchi vosita sifatida tahlil qilinsa, neologizmlar esa zamonaviy ijtimoiy-madaniy jarayonlarning tildagi aksidir. Maqolada bu ikki leksik qatlamning o‘zaro aloqasi, ularning semantik va funksional farqlari, til taraqqiyotidagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ayrim urf-odatlariga oid leksik birliklar misolida arxaik va yangi so‘zlarning jamiyat hayotidagi ifoda vositasi sifatida qo‘llanish holatlari keltiriladi. Tadqiqot natijalari tilshunoslikning leksikologiya va madaniyatshunoslik yo‘nalishlari uchun amaliy va nazariy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: o‘zbek tili, milliy urf-odatlar, leksik birliklar, arxaizmlar, neologizmlar, til taraqqiyoti, marosimlar leksikasi, milliy qadriyatlar, til va madaniyat, leksik o‘zgarishlar.

Kirish

Til – bu nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniyati, dunyoqarashi va ijtimoiy ongining ifodasidir. Har qanday xalqning milliy urf-odatlarini, marosimlarini va an‘analari o‘zbek tilida chuqur ildiz otgan ko‘plab leksik birliklar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, urf-odatlariga oid leksika o‘zbek xalqining ijtimoiy-madaniy hayot tarzini, qadriyatlarini, e‘tiqodini va estetik dunyoqarashini aks ettiradi. Bu so‘zlar orqali biz nafaqat hozirgi jamiyat tafakkurini, balki o‘tmish avlodlarning ruhiy-ma‘naviy olamini



ham anglash imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Til leksikasi doimiy harakatda bo‘lib, u tarixiy, siyosiy, madaniy omillar ta‘sirida doimiy ravishda boyib, yangilanib, ba‘zan esa eskirib boradi. Aynan shu jarayon davomida **arxaizmlar** (ya‘ni qadimiy, hozirgi kundalik nutqdan chiqib ketgan leksik birliklar) va **neologizmlar** (ya‘ni yangi paydo bo‘lgan, zamonaviy hayot tarzini ifodalovchi so‘zlar) shakllanadi. Bu ikki hodisa tilning tarixiy taraqqiyotini va hozirgi zamon madaniy kontekstdagi holatini o‘rganishda alohida ilmiy ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv davrida xalqning madaniy xotirasini asrab qolish, ayni paytda zamonaviy ehtiyojlarga mos yangi ifodaviy vositalarni yaratish zarurati ortib bormoqda. Shu sababli, **milliy urf-odatlariga oid leksikaning arxaik va zamonaviy (ya‘ni neologik) qatlamini o‘rganish** o‘zbek tilshunosligida dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada biz milliy urf-odatlarining nomlanishida ishlatilgan arxaizmlar va neologizmlarning o‘zaro munosabati, ularning semantik, stilistik va funksional xususiyatlari, shuningdek, ularning xalq tilida qanday yashab kelayotgani, ommalashayotgani yoki eskirib borayotganini tahlil qilishni maqsad qilamiz.

Asosiy qism

Arxaizmlar va ularning milliy urf-odatlar leksikasidagi o‘rni. Tarixiy taraqqiyot jarayonida tilda yuzlab, minglab so‘zlar paydo bo‘ladi va vaqt o‘tishi bilan ayrimlari kundalik nutqdan chiqarilib, ma‘naviy-madaniy xotira sifatida saqlanadi. Bu so‘zlar arxaizmlar deb ataladi. Milliy urf-odatlar bilan bog‘liq arxaizmlar o‘zbek tilining tarixiy qatlamini tashkil etib, xalqning qadimiy hayot tarzini, diniy e‘tiqodlarini, ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradi. Ularning o‘rganilishi tilshunoslikda til tarixini, madaniyatshunoslikda esa xalqning ma‘naviy olamini chuqur anglashga xizmat qiladi. Milliy urf-odatlariga oid arxaizmlar ko‘pincha to‘y va marosim atamaları, diniy e‘tiqodlarga oid iboralar, xalqning og‘zaki ijodida, qo‘shiqlarda, ertaklarda uchraydi. Masalan, “naynov” so‘zi qadimda kelinning uyga tushirilishida aytiladigan qo‘shiqlar va o‘yinlarni anglatgan bo‘lsa, bugungi kunda u unutilishga yuz tutgan. Shuningdek, “xarsang” – bahor bayramlari va Navro‘z bilan bog‘liq ramziy tosh, “qut-baraka” esa to‘y marosimlarida tilga olinadigan qadimiy atamalar qatoriga kiradi. Bu so‘zlar til tarixida “fosil” vazifasini bajaradi, xalq hayotining qadimiy bosqichlarini o‘rganishga imkon yaratadi. Biroq, ularning kundalik nutqdan chiqib ketishi, yosh avlodning bu so‘zlar



ma'nosini bilmasligi madaniy merosning yo'qolishi xavfini tug'diradi. Shu sababdan arxaik leksikaning tadqiqi va saqlanishi milliy madaniyatni asrashda muhimdir.

Neologizmlar va zamonaviy urf-odatlar leksikasining shakllanishi. Zamonaviy ijtimoiy hayot, texnologik taraqqiyot, madaniy almashinuv natijasida tilda yangi so'z va iboralar — neologizmlar paydo bo'ladi. Milliy urf-odatlar sohasida ham yangi tushunchalar, yangi marosimlar, yangi ijtimoiy hodisalarni ifodalovchi so'zlar shakllanmoqda. Masalan, so'nggi yillarda tilga kirib kelgan “nikoh marosimi”, “to'y tadbiri”, “kelin-show”, “bridal party”, “baby shower” kabi iboralar milliy urf-odatlarining zamonaviy talqinini ko'rsatadi. Ular avvalo yosh avlod, shahar aholisi, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari tomonidan faol qo'llanilmoqda. Bu neologizmlar o'zbek madaniyatining global madaniyat bilan integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelmoqda. Shu bilan birga, yangi iboralar milliy qadriyatlarni yangicha ifodalash, ijtimoiy jarayonlarni til orqali boshqarish imkonini beradi. Ammo ba'zan bu neologizmlar milliy an'analarga zid yoki begona tus olishi mumkin, bu esa madaniy identifikatsiyaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababdan neologizmlarni tanqidiy yondashuv bilan o'rganish zarur.

Arxaizmlar va neologizmlarning o'zaro munosabati va til taraqqiyotidagi o'rni. Til taraqqiyoti ikki qarama-qarshi jarayonni o'z ichiga oladi: eski qatlamlarni saqlash va yangi qatlamlarni yaratish. Milliy urf-odatlar leksikasida arxaizmlar va neologizmlar hamisha ham yonma-yon, ko'pincha o'zaro aralashgan holatda mavjud bo'ladi. Masalan, o'zbek tilida “to'y” so'zi qadimdan beri mavjud bo'lib, arxaik qatlamga mansub, lekin bugungi kunda unga qo'shimcha ravishda “nikoh marosimi”, “to'y tadbiri” kabi zamonaviy neologik iboralar qo'shildi. Bu holat tilning boyligi va moslashuvchanligini ko'rsatadi. Shuningdek, arxaik so'zlar ko'proq og'zaki ijod va folklor doirasida saqlanib qoladi, neologizmlar esa matbuot, ilmiy-ommabop nutq va rasmiy til sohasida faol qo'llaniladi. Bu ikki qatlam o'rtasidagi muvozanat til madaniyatining davomiyligini ta'minlaydi. Arxaizmlar milliy ildizlar, tarixiy meros bo'lsa, neologizmlar esa yangi madaniy qadriyatlar va ijtimoiy ehtiyojlarni ifodalaydi.

Xulosa

Milliy urf-odatlariga oid leksik qatlam tilda xalqning ma'naviy merosi, qadimiy dunyoqarashi va ijtimoiy ongining ifodasi sifatida yashab kelmoqda. Ushbu qatlamdagi **arxaizmlar** va **neologizmlar** tilning tarixiy hamda zamonaviy taraqqiyotini, uning ijtimoiy-madaniy muhit bilan uzviy bog'liqligini yaqqol ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki:

- **Arxaizmlar** – o'zbek xalqining qadimiy marosimlari, urf-odatlari va e'tiqodlariga oid tushunchalarni saqlab qolgan leksik birliklar bo'lib, ular til tarixining ajralmas qismi hisoblanadi. Ular folklor, to'y-marosim qo'shiqlari, qadimiy iboralar va xalq og'zaki ijodida yashab qolgan.
- **Neologizmlar** esa zamonaviy jamiyatda yuzaga kelgan yangi madaniy va ijtimoiy hodisalarni ifodalaydi. Ular tilga ijtimoiy tarmoqlar, matbuot, OAV, rasmiy hujjatlar orqali kirib kelmoqda hamda yoshlar orasida tez sur'atda tarqalmoqda.

Bu ikki leksik qatlamning tilda yonma-yon mavjudligi — tilning tirik, rivojlanayotgan va moslashuvchan tizim ekanligini isbotlaydi. Shu bilan birga, arxaizmlarning unutilib borayotgani, neologizmlarning esa ba'zan begonalashgan shaklda paydo bo'layotgani **til va madaniyat muvozanatini saqlash** masalasini kun tartibiga olib chiqadi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati biroz kam emasmi

Shu bois, o'zbek tili leksikasida urf-odatlar bilan bog'liq arxaik va zamonaviy birliklarni tizimli o'rganish, ularni hujjatlashtirish va tahlil qilish tilshunoslik, madaniyatshunoslik hamda milliy identitetni mustahkamlash borasida muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jo'rayev N. — *O'zbek tilining izohli lug'ati*. — Toshkent: O'zR FA nashriyoti, 2006.
2. Mamatov M. — *O'zbek tilining leksik tizimi*. — Toshkent: Fan, 2012.
3. Zohidov H. — *Til va madaniyat: O'zbek urf-odatlari leksikasining tarixiy ildizlari*. — Toshkent: Sharq, 2017.
4. Quronov D. — *O'zbek tilshunosligi asoslari*. — Toshkent: O'qituvchi, 2008.



ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2024 SJIF 2024 = 5.073 Volume-3, Issue-9

5. Normurodov O. — *Neologizmlar va ularning o‘zbek tilidagi ifoda vositalari*. — Til va adabiyot jurnali, 2021, №1.
6. Xudoyberganova D. — *O‘zbek tili stilistikasi*. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
7. Xolmuhamedov N. — *Til madaniyati va zamonaviy leksik jarayonlar*. — O‘zbekiston tili va adabiyoti, 2020, №3.
8. G‘afforov N. — *O‘zbek adabiy tili tarixi*. — Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
9. Ismoilov A. — *Leksikologiya va frazeologiya masalalari*. — Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
10. Rahmonov M. — *O‘zbek tili: Tarix va zamon*. — Buxoro: BDU nashriyoti, 2015.
11. Saidova G. — *Urf-odatlar va marosimlar tili: madaniyatshunoslik yondashuvi*. — O‘zbek tili va adabiyoti, 2019, №2.
12. Karimov K. — *Milliy qadriyatlar va til: uzviylik masalalari*. — Tilshunoslik jurnali, 2022, №4.
13. Murodov S. — *Til va jamiyat: leksik o‘zgarishlar muammolari*. — Toshkent: Innovatsiya, 2021.
14. Sultonova G. — *Marosimlar poetikasi va leksikasi*. — Toshkent: Fan, 2009.





(Sentabr)

TABLE OF CONTENTS

1	REANIMATSIYA AMALIYOTIDA TRAXEOSTOMIYANING DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI Axrorov Abror Ixtiyor og’li	7-10
2	QURUQ KO‘Z SIMDROMINI, TASHXISLAS, TARQALISHI, DIAGNOSTIKASI VA UNI DAVOLASH Esanova Nafisa Alisherovna, Mamasaidova Sabrina Abduraxmon qizi	11-16
3	ATLETIK GIMNASTIK VOSITALARI ORQALI CHAQIRIQQACHA YOSHLARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI Haydarov Muzaffar Urmanovich	17-19
4	ZAMONAVIY VA AN‘ANAVIY KASBLAR: BARQARORLIK VA ISTIQBOL Turobova Oysara Artikovna	20-23
5	JAHON IQTISODIYOTIDAGI O‘ZGARISHLAR VA ULARNING O‘ZBEKISTON MINTAQALARI IJTIMOIIY-IQTISODIY BARQARORLIGIGA TA’SIRI Ismoilov Samariddin Akbaraliyevich	24-27
6	FONETIK RANG-BARANGLIKDAN GLOBAL TILGACHA: INGLIZ AKSENTLARINING ILMIY TAHLILI Raxmiddinova Madina Mansurovna, Bo’riyeva Shahnoza	28-33
7	MODEL UNITED NATIONS (MUN) AS A TOOL FOR YOUTH ENGAGEMENT IN MICE TOURISM IN UZBEKISTAN Narzullaeva Fariza Akmalevna	34-36
8	OLIIY TA‘LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI OLIIY TA‘LIM SIFATINI OSHIRISHGA INNOVATSION YONDASHUVLAR Maxmudov Rozmet Muratovich,, Qoraboyev Abdulaziz Abduraxmonovich,	37-43
9	ZAMONAVIY JARROHLIKDA MALLORY–WEISS SINDROMINI DAVOLASHDA YANGICHA QARASHLAR Ashuraliyev Shohijaxon Xasanboyevich, Sattarov Oybek Taxirovich	44-46
10	ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATION: OPPORTUNITIES AND CHALLENGES Normominov Muhiddin	47-51
11	THE IMPACT OF SOCIAL MEDIA ON VOCABULARY ACQUISITION AMONG EFL LEARNERS Maxmarayimov Samandar, Shoyimova Komila	52-58





12	ENDOKRIN BEZLARNING GISTALOGIYASI VA GORMONAL BOSHQARUVI Choriyeva Fazilat Sherali qizi, Saidov Shoxrullo	59-63
13	NERV TO'QIMASI Esanov Sarvar Rifkat o'g'li, Saidov Shoxrullo	64-70
14	QONNING TUZILISHI, FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI, HUYAYRA DIFFERENSIASIYASI VA ORGANIZM TIZIMLARI BILAN O'ZARO ALOQASI Abdurahmonova Shahribonu, Saidov Shoxrullo	71-77
15	MUSHAK TO'QIMASI Xudoyqulova Fotima Sherzod qizi, Saidov Shoxrullo	78-85
16	MILLIY URF-ODATLARNING NOMLANISHIDA ARXAIZMLAR VA NEOLOGIZMLARNING O'RNI Abdurazzoqova Sevara	86-90
	MUNDARIJA	91-92

